

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Solaev Faxriddin Rajabbay o'g'li

5810100- "Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni
rivojlantirishda klaster tizimidan foydalanish**

Ilmiy rahbar: *u. Ruzmetov* dots. Sh.Ruzmetov

Urganch 2015 yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	2-4
1-BOB. MILLIY IQTISODIYOTDA KLASSTER TIZIMINI METODOLOGIK ASOSLARI.....	5-34
1.1. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishida klaster mexanizmining ahamiyati.....	5-12
1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda klasterlar tizimini o`rni.....	13-21
1.3. Mintaqa raqobatbardoshligini oshirishning klaster tizimlari va shakllari.....	22-34
2-BOB. MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	35-68
2.1. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsion muhitni o`rni.....	35-42
2.2. Hududda mintaqaviy klasterlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.....	43-51
2.3. Mintaqada klaster tizimidan foydalanish istiqbollari.....	52-68
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	69-70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	71-74

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolar saqlanib qolayotgan bir vaqtda O'zbekistonda mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuqori suratlarda bilan rivojlanmoqda, aholi turmush darajasi barqaror o'smoqda va yurtimizning jahon bozorlaridagi mavqei yanada mustahkamlanmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan rivojlantirish va isloh qilish strategiyasining samaradorligi, inqirozga qarshi kurashish borasida to'plangan tajriba nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiy institutlarning, jahondagi etakchi ilmiy markazlarning yuqori baholarini olmoqda.

Respublika Prezidenti I.Karimov 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida har bir hudud uchun ustuvor tarmoqlarni aniqlash, tabiiy-xom ashyo resurslaridan yanada to'liqroq foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini, ayniqsa, qayta ishlash tarmoqlari, xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini tezkor va muvozanatli rivojlantirishni hududlarni tarmoqlar bilan uzviy bog'lagan holda kompleks rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasini qo'ydilar. "Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, 2013 yilda izchil yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishimizga aylanish darkor" deb ta'kidladilar.¹

Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi fundamental kategoriya sifatida namoyon bo'lib, takror ishlab chiqarishning hududiy shart-sharoitlari va omillari majmuini ham, mintaqa manfaatlarini hisobga olgan holda innovatsion hamda tabiiy-resurs potentsialidan foydalanish samaradorligini ham o'z ichiga oladi.

Raqobatbardoshlikni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o'rni hamda mintaqalarning barqaror rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishi bilan

¹ Respublika Prezidenti I.Karimov. Xalq so'zi. 19 yanvar 2013 yil.

bog'liq muammolarning hal qilinishi hududlarning tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida mintaqqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'lanishlarini asoslab berish zaruratini taqozo etadi va mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar G.Brundtland, I.Valersteyn, V.Oyken, A.Granberg, J.Valter, U.Izard, M.Porter, P.Krugman, S.Rozenfeld, Rossiyalik olimlar G.Azoev, V.Goncharev, I.Semenova, A.Yudanov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Ushbu yo'nalishdagi boshqa muammolar mamlakatimiz olimlari S.Gulomov, T.Axmedov, A.Vaxobov, A.Qodirov, B.Ro'zmetov, A.Soliev, A.Sodiqov, S.Salaev, R.Nurimbetov va boshqalarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

Biroq, shular bilan bir qatorda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rnini aniqlashga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas.

Shulardan kelib chiqib, tadqiqotda qo'yilgan muammoning dolzarbligi, shuningdek, uning etarli darajada o'rganilmaganligi ushbu magistrlik dissertatsiya ishining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalarini belgilab berdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda klaster tizimidan foydalanishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida mintaqqa raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillarini aniqlash;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sub'ektlarini Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllarini o'rganish;

- milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o`rnini baholash;

- Xorazm viloyati iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarni tahlil etish;

- Xorazm viloyatining iqtisodiy potentsialidan samarali foydalangan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo`nalishlarini asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ish predmeti va ob'ekti. Raqobatbardoshlikning o`sib borishi sharoitida faoliyat ko`rsatayotgan va rivojlanayotgan Xorazm viloyati iqtisodiyoti tadqiqot ob'ekti bo`lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqa barqaror o`shishini shakllantirish, raqobatbardoshligini oshirish usullari va mexanizmlari tadqiqot predmetini tashkil etadi


Bitiruv malakaviy ish metodlari. Tadqiqot jarayonida asosan qiyosiy va statistik tahlil, tizimli va mantiqiy yondoshuv, iqtisodiy-statistik va ekspert-baholash metodlaridan foydalanildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, shuningdek ish 9 ta jadval va 6 ta rasmlarni ham o`z ichiga oladi

1-BOB. MILLIY IQTISODIYOTDA KLASSTER TIZIMINI METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishida klaster mexanizmining ahamiyati

Postindustrial jamiyat qaror topayotgan sharoitlarda iqtisodiyotning globallasuvi va axborotlashuvi xo'jalik tuzilmalarida jiddiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Industrial iqtisodiyotda ijtimoiy mehnat taqsimoti, mahsulot va texnologik ixtisoslashuvni yanada chuqurlashtirish iqtisodiy o'sishning bosh omili hisoblanadi. Hozirgi sharoitlarda firmalararo va tarmoqlararo ilmiy-ishlab chiqarish kooperatsiyasi, baynalminallashish va integratsiya birinchi darajali ahamiyat kasb etib bormoqda. Tayyor mahsulotlar bilan tashqi savdo yakuniy mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xalqaro kooperatsiyalashish bilan yanada to'ldiriladi va almashinadi. 1.1.1-rasmda klasterning milliy iqtisodiyotning turli jihatlarini bilan o'zaro bog'liqligi keltiriladi.



1.1.1 - rasm. Klasterlarning mamlakatning umumiy iqtisodiy siyosatiga ta'siri²

² Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan

Tarmoqlararo iqtisodiyot tizimining tashkiliy-iqtisodiy shakllarini yaratishga klasterli yondashuv nazariyasi va amaliyoti mazkur muammoni hal etishda universal usul mavjud emasligini ko`rsatdi.

M.Porter klasterli rivojlanish nazariyasining asoschisi bo`lib hisoblanadi, u mazkur masalani turli mamlakatlarning 100 dan ziyod tarmoqlaridagi raqobat vaziyatlarini tadqiq etish orqali o`rgangan. M. Porter xalqaro miqyoslarda nisbatan raqobatbardosh, bir tarmoqqa tegishli firmalar, odatda, turli rivojlangan davlatlar bo`yicha betartib ravishda sohib yuborilmagan bo`lib, balki aynan bir mamlakat va hattoki mamlakatning muayyan bir hududida to`planish xususiyatiga ega ekaniga ahamiyat bergan. Bu tasodif emas. Jahon bozorida raqobatbardoshlikka erisha olgan bir yoki bir nechta firma atrofidagi: ta'minotchilar, iste'molchilar va raqobatchilarga o`z ta'sirini o`tkaza oladi. O`z navbatida, atrofdagilarning muvaffaqiyati ham ushbu korxonaning raqobatbardoshligini yanada o`sishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Natijada esa, raqobatbardoshlikni o`stirishda bir-biriga yordam beruvchi, bir-biri bilan uzviy bog`liq tarmoqlar, firmalar uyushmasi- "klaster" shakllanadi. Davlatning umumiy iqtisodiyotida klasterlar ichki bozorning o`sishi va eksportga yo`naltirish uchun tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi. Birinchisining ketidan iqtisodiyotda ko`p holatlarda yangi klasterlar shakllana boshlaydi va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligi kuchayib boradi.

M.Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi-klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko`rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydala olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi³. U klasterlarning raqobatbardoshlikka ta'sirini mufassal uch izoh orqali tushuntiradi:

- maxsus jamg`armalarga va mutaxassis xodimlarga ega bo`lish yo`lining ochiqligi, axborotlarga, institutlarga va ijtimoiy boyliklarga ega bo`lish

³ Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.

imkoniyatlarini kengaytirilishi va to'ldiruvchi xo'jalik faoliyatining rag'batlantirilishi orqali raqobatbardoshlikni ko'tarish;

- texnologik bilimlar va innovatsiyalarni jadal tarqatish yo'li bilan firmaning innovatsiyalarga asoslangan salohiyatini ko'tarish. Har bir klaster doirasidagi raqobat bosimi kompaniyalarning innovatsiyalarga oid faoliyatga nisbatan motivatsiyasini oshiradi;

- firma xodimlarining alohida ajralib chiqqan holda, o'z shaxsiy korxonalarini tashkil etishi orqali yangi korxonalarning yuqori sur'atlarda yaratilishini rag'batlantirish.

Raqobatbardoshlikni qaror toptirish bo'yicha iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga klasterli yondashuv boshqa qator nazariyalarda ham qo'llaniladi. E.Lyumer milliy darajadagi savdoni tahlil qilish davomida eksport darajasi yuqori bo'lgan klasterlarni o'rgangan⁴. Frantsuz olimlari I.Tolenado va D.Sole texnologik sohalarining guruhlariga ta'rif berishda "filerlar" tushunchasidan foydalanganlar⁵. Filerlarning shakllanishini bir sohaning texnologik darajasi bo'yicha boshqasiga bog'liqligi orqali tushuntirish mumkin. Shunday qilib, filerlar deganda, klasterning nisbatan tor talqini tushuniladi, chunki klasterni yuzaga keltiruvchi mezonlardan biri-iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining potentsial ustunliklaridan foydalanish maqsadida, ular o'rtasidagi texnologik aloqalarni yo'lga qo'yish zaruriyatidir.

Klasterli yondashuvdan shuningdek, shved nazariyotchilari ham foydalanganlar. Ularning klaster nazariyasi, asosan, milliy iqtisodiyot tuzilmasini o'rganish davomida, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, ko'p millatli, yirik shved korporatsiyalari o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish davomida qaror topgan. Bu erda klasterlar E.Daxmenning "taraqqiyot bloklari to'g'risida"gi tezisiga asoslanadi⁶. E.Daxmenning fikricha, raqobat muvaffaqiyatini kuchaytirishning negizi bir tarmoq rivojlanishi davomida boshqa tarmoqda ham o'sishni ta'minlab bera olish qobiliyati

⁴ Leamer E.E. Sources of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge, MIT Press, 1984.

⁵ Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. - Revue d'Economie Industrielle. - V. 6. - 1978. - № 4. - P. 149-158; Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Annales des Mines, Janvier 1989. - P. 21-28.

⁶ Dahmen E. Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry, 1919-1939. - Stockholm, 1950; Mattsson L. G. Management of Strategic Change in a "Markets-as-Networks" Perspective. In the Management of Strategic Change/ Ed. by Fndrew M. Pettigrew. - Oxford, N. Y., 1987.

o`rtasida o`zaro bog`lanishning mavjudligi hisoblanadi. Rivojlanish bosqichma-bosqich yoki boshqa tarmoqlar bilan o`zaro bog`liq bo`lgan bir tarmoq doirasidagi “vertikal harakatlar” bo`yicha yuz berishi lozim, sababi, bu raqobat ustunliklariga ega bo`lish uchun imkon yaratadi.

Klasterlar asosida raqobatbardoshlikni rivojlantirishning eng zamonaviy nazariyasi V.Feldman tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaning afzal tomoni shundaki, u turli mamlakatlardagi diversifikatsiyalangan shakldagi korxonalarni keng ko`lamlarda empirik tadqiq qilishga asoslanadi<sup>7</sup>. Mazkur nazariyaning mohiyati quyidagicha. Diversifikatsiya ko`pincha “xarajatlar-ishlab chiqarish” qolipida yoki o`zaro etkazib berish munosabatlari bilan bog`langan tarmoqlar o`rtasidagi shartnomalarga muvofiq rivojlanadi. Bu klasterlarni yuzaga keltiradigan mexanizmlarga mos keladi. Shunday qilib, nisbatan yashovchan klasterlar diversifikatsiya asosida shakllanar ekan.

Raqobatning ilmiy asoslarini umumlashtirib shunday xulosa chiqarish mumkin, ya'ni raqobatbardoshlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – klasterli yondashuv hisoblanar ekan. Ilmiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasining umumiy e'tirofga ega yagona bir ta'rifi mavjud emasligi ta'kidlanadi. Klasterga berilgan ta'riflarni ko`rib chiqish natijasida, D.S.Nosirxodjaevaning tadqiqotlari orqali quyidagi xulosalar qilindi:

-turli mualliflar tomonidan “klaster” tushunchasiga berilgan izohlardan kelib chiqqan holda, nisbatan kontseptual umumiylikka ega bo`lish sababi-M.Porterning kontseptsiyasi mahalliy tadqiqotchilar tayanadigan asosiy nazariy baza hisoblanishida;⁸

-klasterga mahalliy tadqiqotchilar odatda klaster ishtirokchilarining hududiy mahalliylashuvida namoyon bo`ladigan mintaqaviy jihatlaridan, yoki klaster

⁷ Feldman V. P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition-European Economic Review. - 1999. - № 43. - P. 409-429.

⁸ Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – С. 37.

korxonalari asosiy qismining bir hudud doirasida to'planishidan kelib chiqqan holda qaraydilar;⁹

-mualliflar mazkur tushunchaga tarif berishda turli yondashuvlardan foydalanadilar va bunda hal etilayotgan muammolar doirasidan kelib chiqqan holda, ularning ilmiy dunyoqarashlariga nisbatan to'liqroq javob beradigan jihatlariga ko'proq e'tibor qaratadilar¹⁰.

Iqtisodiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasiga juda ko'p ta'riflar keltiriladi va ular iqtisodiy rivojlanishning klaster nazariyasining asosi bo'lib hisoblanadi (1.1.1-jadval).

1.1.1 - jadval

G'arb iqtisodiyot ilmda “klaster” tushunchasiga berilgan ta'riflar¹¹

Muallif	Yil	Ta'rif mazmuni
M. Porter (M. Porter)	1990	Sanoat klasteri – xaridor-etkazib beruvchi yoki etkazib beruvchi-xaridor, yoki umumiy texnologiyalar orqali bog'langan bir qator tarmoqlar, xarid yoki taqsimot umumiy kanallari, yoki umumiy mehnat birlashmalari.
X. Shmitts (H. Schmitz)	1992	Klaster – bir tarmoqqa tegishli yoki bir-biriga uzviy yaqinlikda faoliyat ko'rsatadigan korxonalar guruhi.
G. Suenn (G.M.P. Swann) M. Prevezer (M. Prevezer)	1996	Klasterlar – yagona bir geografik hududda joylashgan, bir tarmoq doirasidagi firmalar guruhi.
M. Enrayt (M. Enright)	1996	Mintaqaviy klasterlar – bu sanoat klasterlari bo'lib, ularda ishtirokchi firmalar bir-biri bilan juda yaqinlikda bo'ladi.
S. Rozenfeld (S. Rozenfeld)	1997	Klaster – geografik jihatdan yaqinligi va o'zaro bog'liqligi sababli sinergetik samara keltirishga qodir firmalarning to'plami, bunda ularning bandlik miqyoslari aniq yoki sezilarli bo'lmasligi mumkin.

⁹ Кадыров А.М., Севлякянц С.Г. Формирование кластера ИКТ в Узбекистане. // Рынок, деньги, кредит. – Ташкент, 2005. - № 8. – С. 29.; Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. // Теория и практика. – Т.: ИЭ АН РУз, 2005. – 54 с., Бекмуратов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т.: ТГЭУ, 2006.

¹⁰ Д.С Насырходжаева. Формирование стратегии развития промышленных предприятий на отраслевых рынках. Диссертационная работа на соискание учёной степени доктора экономических наук.Т.: ИЭ АН РУз, 2011, с.26

¹¹ Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan.

E. Fezer (E. Feser)	1998	Iqtisodiy klasterlar tarmoqlar va institutlarni nafaqat bog`lab turuvchisi va qo`llab-quvvatlovchisi hisoblanadi, balki ularning o`zaro hamkorlik qilishlari asosida nisbatan raqobatbardosh bo`lgan o`zaro bog`liq va qo`llab-quvvatlovchi institutlardir.
V. Elsner (W. Elsner)	1998	Klaster – funktsional jihatdan ham vertikal, ham gorizontal bog`liq firmalarning guruhi. Funktsional yondashuv klasterni tashkil etgan firmalar va institutlar o`rtasida qaror topgan o`zaro munosabatlarning sifatini hamda bozor orqali belgilanadigan o`zaro bog`liqliklarni ifoda etadi.
M. Shtayner (M. Steiner), TS. Xartmann (C. Hartmann)	1998	Klaster – mehnat bozori va/yoki xarajat-ishlab chiqarish, va/yoki texnologik aloqalar bilan bog`langan ijtimoiy, xususiy yoki yarim ijtimoiy tadqiqot institutlari va taraqqiyot institutlarining o`zaro bir-birini to`ldiruvchi (ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish sohasidagi) firmalari to`plami.
T. Roelandt (T. Roelandt) P.den Xertag (P.den Hertag)	1999	Klasterlar bir-biri bilan ishlab chiqarishning qo`shilgan qiymat zanjiri bilan o`zaro kuchli darajada bog`langan firmalarning ishlab chiqaruvchilari tarmog`i sifatida ta'riflanishi ham mumkin.
Dj. Simmi (J. Simmie), Dj. Sennet (J. Sennet)	1999	Innovatsiyalar klasteri-odatiy etkazib berish zanjiri orqali yuqori hamkorlik darajasiga ega va bir xildagi bozor sharoitlarida faoliyat yuritadigan o`zaro bog`liq industrial va/yoki servis kompaniyalarning katta miqdori.
Organizatsiya po ekono- micheskomu sotrudnichestvu i razvitiyu (Organization for Economic Cooperation and Development)	2001 2002	Mintaqaviy klasterlar o`zaro bog`liq firmalarning geografik jihatdan muayyan chegaraga ega to`plami bo`lib hisoblanadi va ulardan industrial rayonlar, ixtisoslashgan sanoat aglomeratsiyalari va mahalliy ishlab chiqarish tizimlari kabi nisbatan qadimgi monand kontseptsiyalar uchun kalit so`z sifatida ham foydalanish mumkin.
T. Andersson (T. Andersson)	2004	Klaster-bu muayyan bir geografik hudud ichida alohida funktsional maydon atrofida kooperatsiyalashish va o`zaro uzviy aloqalar va jamoaviy raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida ishchi alyanslarni o`rnatish asosida to`plangan firmalar va boshqa faoliyat ko`rsatuvchi shaxslarning birlashuvi.

A.A.Migranyanning fikricha, klaster-bu “iqtisodiy faoliyatning nisbatan samarali va bir-biri bilan bog`liq turlarining majmui, ya'ni muvaffaqiyat bilan raqobat

qiluvchi o'zaro bog'liq guruhlarining to'plami bo'lib, tarmoq, milliy va jahon bozorlarida raqobatchilik vaziyatini ta'minlab beradi"¹². T.V.TSixan klasterlarning keng tarzdagi 3 xil ta'rifini keltiradi, ularning har biri klaster faoliyatining eng muhim xususiyatlarini ochib beradi:

- odatda u yoki bu ilmiy muassasalar (ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy markazlar, universitetlar va b.) tasarrufida bo'lgan bir-biriga bog'liq sohalar o'rtasidagi iqtisodiy faollikning hududiy jihatdan cheklangan shakllari;

- vertikal ishlab chiqarish zanjirlari; muayyan darajada tor alohida sohalar, ularda ishlab chiqarishning aralash bosqichlari klaster yadrosini shakllantiradi (masalan, "ta'minotchi- ishlab chiqaruvchi-sotuvchi-mijoz" zanjiri). Bosh firmalar atrofida qaror topadigan tarmoqlar ham aynan mana shu toifaga kiritiladi;

- yuqori darajali agregatsiya bilan shakllangan sanoat tarmoqlari (masalan, "kimyoviy klaster") yoki yanada yuqori darajadagi agregatsiyaga ega tarmoqlar majmui (masalan, "agrosanoat klasteri")¹³.

M. Afanasev va L. Myasnikova klaster tuzilmasida eng muhimi innovatsiyalarning qiymat yaratiladigan butun zanjir bo'ylab tarqalishi va tashqi muhit bilan o'zaro munosabat o'rnatish uchun zarur yagona logistik darcha deb hisoblaydilar¹⁴. Chet ellik mualliflar tomonidan berilgan ta'riflardagi kabi, mahalliy iqtisodchilar ham klasterlarning quyidagi muhim tavsiflarini ajratadilar: hududiy chegaraga egalik (geografik to'planish), o'zaro munosbatlarning muayyan uslublari (yoki vertikal, yoki gorizontal, yoki ham vertikal va ham gorizontal bo'yicha). Modomiki, klaster ishtirokchilari hududiy jihatdan muayan chegaraga ega bo'lar ekan yoki klaster korxonalarining asosiy qismi bir hudud chegarasida to'planar ekan, demak, mahalliy tadqiqotchilar klasterga aynan mintaqaviy nuqtai nazardan qaraydilar³. Sh.Otojonovning fikricha "Innovatsiyaviy klasterni tashkil etish sanoat

¹² Мигранян А.А. Теоретические аспекты формирования конкурентоспособных кластеров в странах с переходной экономикой // Вестник Киргизко-Российского Славянского ун-та.- 2002.- № 3.

¹³ Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления.- 2003.- № 5.

¹⁴ Афанасьев М., Мясникова Л. Мировая конкуренция и кластеризация экономики // Вопросы экономики. — 2005. — № 4. — С.75–86.

³ Кадыров А.М., Севлякянц С.Г. Формирование кластера ИКТ в Узбекистане. // Рынок, деньги, кредит. — Ташкент, 2005. - № 8. — С. 29.; Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического

korxonalarining ilmiy va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalari va munosabatlari negizida. Davlat tuzilmalari ko'magida, mintaqani rivojlantirish bzyicha innovatsion siyosatni amalga oshirish manfaatlari yo'lida amalga oshiriladi".¹⁵

Iqtisodiyotning klasterlashuvi xo'jalik yuritishni tashkiliy shakllarining tadrijiy rivojlanishini ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, balki davlat-xususiy hamkorlik negizida jamiyat (ijtimoiy) institutlarining tarkibiy isloh qilinishini, yirik va kichik tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlikni, davlat aralashuvining mahalliylovini ham anglatadi. Integratsiya tushunchasi klaster kontseptsiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoq, texnologik va kooperativ mehnat taqsimoti emas, balki tarmoqlararo va mintaqalararo integratsiya hozirgi zamon sharoitida iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini belgilab beradi. Klasterni yaratish maqsadi uning tizim sifatida shakllantiruvchi elementi hisoblanadi. U klaster ishtirokchilarining shaxsiy maqsadlaridan farq qiladi, negaki, maqsad ishtirokchilar ega bo'ladigan foydani maksimal darajaga etkazishdan emas, balki mintaqani barqaror rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlar, tashkiliy va ijtimoiy imkoniyatlarni yaratib berish, klaster ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir¹⁶.

Turli agentlarning nafaqat raqobati, qo'shib ketishi va yutib yuborilishiga, balki ularning manfaatlari va hamkorligiga asoslangan ijtimoiy institut sifatidagi klaster kontseptsiyasi zamonaviy iqtisodiyot fanida raqobat-individual paradigmaga qarshi chiqadi. Ijtimoiy institut sifatidagi klaster globallashuv sharoitida o'sib borayotgan ijtimoiy jarayonlar noaniqligini kompensatsiyalaydi, yangi motivatsiyaga ega iqtisodiy sub'ektlarni shakllantiruvchi o'ziga xos axborot makonini yaratadi, ko'p qirrali iqtisodiy makonni rivojlantiradi.

развития. // Теория и практика. – Т.: ИЭ АН РУз, 2005. – 54 с., Бекмуратов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т.: ТГЭУ, 2006.

¹⁵ Ш.Отожонов. Инновацион кластерлар ташкил этиш- худудларнинг инновацион салохиятини бошқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим омили. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития. Материалы V Форума экономистов. Т.: IFMR, 2013. 468 б.

¹⁶ Мингалева Ж., Ткачева С. Кластеры и формирование структуры региона. // МЭМО. — 2000. — №5. — С.97–102.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda klasterlar tizimini o`rni

Firmalar iqtisodiyotidan klasterlar iqtisodiyotiga o`tish hamkorlikdagi mehnatning yangi shakliga o`tishni anglatadi, bunda faoliyatni muvofiqlashtirish gorizontali bo`yicha axborotlarning erkin almashinuvi, bilimlar, malaka va ko`nikmalar bilan o`rtoqlashish, nomoddiy aktivlardan hamkorlikda foydalanish asosida amalga oshiriladi. Transaksiyalar klasterda egalik huquqini topshirish bo`yicha bozor kelishuvlari orqali olib borilmasligi, balki hamkorlikda foydalanish yoki taqsimlash nisbatlarini birgalikda muhokama qilish negizida alohida detallashtirilgan vakolatlarni topshirgan holda yuritilishi mumkin.


M. Porter tomonidan asoslab berilgan klasterli yondashuvda har bir tarmoq boshqalaridan alohida ko`rilmaydi, balki o`zaro bog`liq sohalar majmuining bir qismi sifatida tizimli ravishda o`rganilishi lozim (1.2.1-rasm)¹⁷.

Tayanch tarmoqning qaror topishi boshqa tarmoqlar- ta'minotchi va iste'molchilarning, shuningdek xizmat ko`rsatish bo`g`inlarining rivojlanishiga turtki bo`ladi-iqtisodiy faollik klasterini shakllantiradi.

Klasterlarning muhim tarkibiy qismlari: ushbu klasterning asosiy tovar va xizmatlarini ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar; yirik kompaniyalar uchun etkazib beruvchi hisoblangan kichik yuqori texnologik firmalar; texnologik parklar, universitetlar, markaziy va mahalliy hukumat idoralari, ijtimoiy tashkilotlar (savdo-sanoat palatalari, tarmoq uyushmalari va alyanslar)dan iborat. Klasterli yondashuv asosida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim tavsiflari quyidagilardan iborat:

- tashkilotlarning mulkchilik, tashkiliy-huquqiy maqomi, tarmoq va geografik o`rniga ko`ra yuqori qo`shilgan qiymatga ega yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi yaxlit tizimga mansubligi bo`yicha birlashuvi;

¹⁷ Портер М. Конкуренция М.: Вильямс, 2002 с.261



1.2.1 - rasm. Klasterlarni takomillashtirishga hukumatning ta'siri¹⁸

- klasterning barcha qatnashchilari o'z yuridik va xo'jalik mustaqilligini saqlab qoladilar, bu esa ierarxik boshqaruv organlarini yaratishni talab etmaydi, ma'muriy va tashkiliy xarajatlarni kamaytiradi;

- klaster qatnashchilari o'rtasida nafaqat bozor, raqobat munosabatlari, balki umumiy strategik rejalar, kelshuvlar va alyanslar asosida yagona maqsadga erishish bo'yicha o'zaro ishonchga asoslanadigan, brendlar va boshqa nomoddiy aktivlardan,

¹⁸ Manba: Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – С. 37.

transfert narxlar, transaktsiya xarajatlarini qisqartirish sxemalaridan birgalikda foydalanish bo'yicha hamkorlik munosabatlari ham o'rnatiladi;

- alohida korxonalar faoliyatini tartibga solishdan farqli ravishda, klasterlarni davlat tomonidan boshqarish strategik boshqaruvni, mintaqalararo aloqalarni rivojlantiradi, davlat-xususiy investitsiya-innovatsiya hamkorligi negizida mintaqaviy innovatsiyalarga asoslangan va infratuzilmaviy tizimni yaratishga imkoniyat beradi.

Iqtisodiyotni klasterli tuzilmaga aylantirish quyidagi uch muhim yo'nalishda raqobatbardoshlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

a) firma va tarmoqlarning unumdorligi oshadi;

b) innovatsiyalar va ishlab chiqarishning o'sishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi;

v) innovatsiyalar va klasterlarni yanada kengaytirilishini qo'llab-quvvatlovchi yangi biznesning shakllanishini rag'batlantiradi va engillashtiradi.

D.Xart tomonidan ajratilgan klasterlar tasnifi mintaqaviy (mahalliy) ishlab chiqarish tarmog'i modeliga asoslanadi¹⁹. Mintaqaviy ishlab chiqarish tarmog'i modeli ichida nazariy jihatdan klasterlarning uchta kichik guruhini ajratish mumkin bo'lib, ilmiy adabiyotlarda ular tez-tez uchraydi:

- A turi – o'zaro bog'liq klasterlar;

- B turi – yangi sanoat zonalari;

- S turi – innovatsiya muhiti.

O'zaro bog'liq klasterlar (A turi)- klasterlarning eng tarixiy turi. O'zaro bog'liq klasterlar xarajatlarni kamaytirish maqsadida hududiy jihatdan avvaldan bir-biri bilan yaqin joylashgan kompaniyalar guruhidan iborat. Tadbirkorlar o'z firmalarini transport uchun va xodimlarning ish haqlari uchun xarajatlar juda kam bo'ladigan mintaqalarda tashkil etadilar. A.Marshall transport xarajatlarini ishlab chiqariladigan mahsulotlar og'irligi va masofalar natijasi hisoblanadi, deb hisoblagan²⁰.

¹⁹ Харт Д.А. Инновационные кластеры: основные идеи // Институт региональных инновационных систем (ИСИР) : [сайт]. URL: <http://www.innosys.spb.ru/?id=886> (дата обращения 15.04.2010).

²⁰ Маршалл А. Основы экономической науки [предисл. Дж. М. Кейнса; пер. с англ. В.И. Бомкина, В.Т. Рысина, Р.И. Столпера]. – М.: Эксмо, 2008. – С. 233.

Klasterlarning navbatdagi turi (V turi)-yangi sanoat zonalari. Yangi sanoat zonalarining, odatda, fan sig'imi yuqori bo'ladi, ular orasida yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat olib boradigan, ya'ni kompyuterlar, axborot texnologiyalari va mikroelektorika ishlab chiqaradigan kompaniyalar ko'p uchraydi. Yangi mahsulotlar yaratishda ular asosan ilmiy tadqiqotlarga tayanadilar. Bunday klasterlarning eng ahamiyatli afzal tomonlari axborotlar, yuqori malakali xodimlarning chuqur bilimlarga egaligi va bozorlarga yangi mahsulotlarni tez sur'atlarda etkazib bera olish qobiliyati hisoblanadi.

Uchinchi tur klasterlarning tavsifi (S turi-innovatsiya muhiti) ma'lum darajada GREMI (Evropa innovatsiyalar muhitini o'rganish guruhi) olimlari guruhlarining tadqiqotlariga asoslanadi. Innovatsiya muhitida ijtimoiy aloqalar bir kompaniyada faoliyat yuritadigan alohida ishtirokchilar o'rtasida ham, turli kompaniya xodimlari o'rtasida ham o'rnatiladi.

Kichik va yirik biznesning kooperativ-xo'jalik munosabatlarining odatiy shakllaridan farqli ravishda, innovatsiyalar klasteri tizimi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni qamrab olgan, ichki va tashqi bozorlarda ahamiyatli darajada o'z ulushiga ega bo'lishga qodir etakchi firmalarning mavjudligi;

- tengsiz ustuvor xususiyatlarni namoyon eta oladigan klasterlarning muayyan chegaradagi hududda to'planishi;

- klaster qatnashchilarining ichki va tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish maqsadida o'zaro hamkorlik qilishlari;

- klaster ishtirokchilari o'rtasida raqobatning mavjudligi;

- axborot uzatish tarmoqlarining taraqqiy etishi hisobiga yangiliklarning jadal sur'atlarda tarqalishi²¹.

²¹ Печаткин В.В., Гаймалова С.М. Теоретические и прикладные аспекты формирования промышленных кластеров в регионах России // Промышленная политика в Российской Федерации. — 2006. — № 11. — С. 27–

Klaster tuzilmasini tavsiflovchi xususiyatlarga bog'liq ravishda, ular quyidagi sinflarga ajratiladi (1.2.1-jadval).

1.2.1 - jadval

Klasterlar sinfini belgilab beruvchi tavsiflar²²

№	Sinfi	Qisqacha tavsifi
1	Kuchli	Klasterning samarali tuzilmasi, ishlab chiqarish tsiklining tashqi bosqichlarini namoyon etadi, ishtirokchilar o'rtasida yuqori darajali raqobat va faol hamkorlik barqaror raqobat ustunligini yaratadi.
2	Barqaror	Klaster tuzilmasi barqaror rivojlanadi, biroq hozirgi vaqtda aglomeratsiyadan muhim afzalliklarga ega bo'lish uchun ishlab chiqarish salohiyatining kritik massasi etarli darajada to'planmagan, faqat klaster ichida o'zaro faol munosabatlar mavjud
3	Potentsial	Klaster tuzilmasi hozircha to'laqonli emas, biroq intensiv ravishda rivojlanmoqda
4	Latent	Faqat alohida klaster tuzilmalari mavjud, kommunikativ munosabatlar esa etarli darajada emas.

Jahon amaliyotida innovatsiya muhitini faollashtirish va yanada mukammallashtirishning turli usullari mavjud. Ular qatorida innovatsiyalarning rivojlangan infratuzilmasi (texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion fondlar)ning shakllanishi, texnologiyalar transferi tarmog'ining yaratilishi, innovatsiya bo'yicha loyihalarga bevosita va bilvosita moliyaviy ko'maklashish, shuningdek innovatsiya siyosatini amalga oshirishga klasterli yondashuvni aytib o'tish mumkin.

Nisbatan keng ma'noda innovatsiya klasteri deganda, aniq bir maqsadda tashkil etilgan, ilmiy bilimlar va biznes-g'oyalar yuzaga keladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadigan markazlar negizida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar guruhi tushuniladi. Innovatsiya tipidagi klaster tashqi muhit o'zgarishlariga samarali ravishda moslashuvchan bo'la olishi kerak, klasterning innovatsionlik darajasi deganda, ilmiy bilimlar yuzaga keladigan va biznes-g'oyalar yaratiladigan markazlar,

²² Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadigan markazlarning klaster tarkibiga integratsiyalashuvi darajasini; umumiy ishlab chiqarish hajmida innovatsiya va fan sig'imi yuqori mahsulotlarning ulushi; ushbu mahsulotlar savdosini ifoda etuvchi uning ham sifat, ham miqdoriy tavsiflarini tushunish mumkin.

Klasterning qaror topishi o'z-o'zidan raqobatbardoshlikning o'ziga xos omillarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Klaster raqobatbardoshligi deganda, eng avvalo, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi muhit imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalangan holda, uzoq muddatli istiqbolda o'z raqobatbardoshligini saqlay olish qobiliyatining barqarorligi tushuniladi.

Klasterli yondashuv hukumat tashkilotlariga biznes bilan samarali hamkorlik qilish vositalarini taqdim etadi, uning o'ziga xos ko'rsatkichlari va taktik vazifalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, mintaqa resurslarini maqsadli va asosli tarzda strategik rejalashtirish, iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va hududni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qo'shilgan qiymat yaratishning davomli zanjirlari mintaqada investitsiyalarni va ular bilan bog'liq soliq tushumlari miqdorini oshiradi.

Shunga bog'liq holda, mintaqada raqobatbardoshlikni oshirish sohasiga oid vazifalardan biri mintaqani klasterlash salohiyatini aniqlashdan iborat. Klasterlash salohiyati – bu mintaqa hududida joylashgan tarmoqlar, korxonalar va infratuzilma tashkilotlarining mavjud raqobat usutunliklari, ushbu ustunliklarni jamlash va ulardan mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda foydalanish imkoniyatlaridir.

Klasterlash salohiyatini baholashda raqobat barqarorligini:

a) mintaqadagi korxonaning;

b) tarmoq barqarorligi (bir xilda yoki texnologik jihatdan deyarli bir xildagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mintaqadagi korxonalar guruhi) ni tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Raqobat barqarorligini baholash algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

-birinchi bosqich-iqtisodiyot tarmoqlarining bozorda egallagan o'rnini aniqlashni nazarda tutuvchi raqobat barqarorligini miqdoriy jihatdan tahlil qilish;

-ikkinchi bosqich-mintaqadagi korxonalarning muayyan sohalar bo'yicha raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur resurs bazasining mavjudligi va uning tarkibini, ya'ni raqobat barqarorligini sifat jihatdan tahlil qilish;

- uchinchi bosqich-iqtisodiyotning aniq, xususan mintaqa korxonalarining raqobat ustunliklariga erishish mumkin bo'lgan sohalarini aniqlash, ya'ni klasterlar tahlili.

Tarmoqning mintaqadagi raqobat barqarorligi va klasterlash salohiyati bahosi koefitsientlar tizimi: mintaqa hududida mazkur ishlab chiqarishning mahalliylik koefitsienti; jon boshiga ishlab chiqarish koefitsienti; mazkur tarmoqqa hududning ixtisoslashuvi koefitsienti orqali ifodalanadi.

Klasterlarning shakllanishida va ular orasidan nisbatan etakchilarini tanlab olishda birinchi navbatda, mahalliylik koefitsienti dinamikasini baholash talab etiladi- dinamikadagi ko'rsatkichlar miqdorining ortib borishi klasterlarning kelgusida o'sish istiqboli mavjudligini, pasayishi esa-ishlab chiqariladigan mahsulotlar assortimentini imkon qadar kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zarurligi haqida yoki kelgusida klasterning istiqbolsiz ekanini tasdiqlaydi. Tarmoqlarni mana shu ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash kelgusi bosqichda tarmoqlar tahlili mazmunini belgilab beradi. Bunda olingan natijalardan qat'i nazar, tarmoqlar navbatdagi bosqich tahlilidan tushirib qoldirilmasligi kerak.

Raqobat barqarorligi shartlarining sifat jihatdan tahlili deganda, iqtisodiyotning muayyan sohalar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan resurs bazasining mavjudligi va uning tarkibini aniqlash nazarda tutiladi.

Bu natijalarga alohida sharoitlarni tahlil qilish negizida erishiladi va ular kompleks ravishda raqobat ustuvorligi asosini tashkil etadi. Bu sharoitlar quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish omillari, mazkur tarmoqda raqobat kurashini olib borish uchun zarur;
- tarmoq mahsulotlari uchun ichki bozordagi talab;
- raqobatchi ta'minotchi-tarmoqlar yoki mazkur mintaqadagi boshqa yondosh tarmoqlar;

- korxonalarni tashkil etish va boshqarishning samarali strategiyalarini shakllantirishga undovchi omillar, ular orasida eng muhimi ichki bozordagi raqobat hisoblanadi.

Mintaqadagi sanoat korxonalarining raqobat ustunliklariga erishish mumkin bo'lgan muayyan iqtisodiyot sohaslarini aniqlab olish uchun klasterning sifat va miqdoriy tahlillarni ham qamrab olgan raqobatbardoshligini baholash zarur bo'ladi. Klaster raqobatbardoshligining miqdoriy tahlilida tarmoq, mintaqa, mamlakat darajasidagi klasterlarni shakllantiruvchi korxonalarining bozordagi vaziyatini aniqlash ko'zda tutiladi. Klaster raqobatbardoshligining sifat tahlili deganda, klaster tarkibiga kirgan korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan resurs bazasining mavjudligi va tarkibining tahlili nazarda tutiladi.

Ta'kidlash joizki, innovatsiya klasteri quyidagi uch muhim tarkibiy qism mavjud bo'lsagina muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin:

-ichki va tashqi bozorlarda sotiladigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan etakchi korxonalar;

-innovatsiya tipidagi klasterning barcha rezidentlariga yuqori sifatli xizmatni ta'minlab berishga qodir xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining rivojlangan tarmog'i;

-yuqori sifatli mehnat resurslarini o'z ichiga olgan, investitsiya mablag'larini olish imkoniyatiga ega bo'lgan, ma'muriy to'siqlar bo'lmagan, innovatsiya tipidagi klasterda yuqori darajada rivojlangan infratuzilmalar, rivojlangan ilmiy-tadqiqot salohiyati va h.k. mavjud bo'lgan maqbul biznes-muhit (klaster korxonalari uchun tashqi va ichki raqobatbardosh muhit).

Mana shu yo'nalishlar yordamida klasterning rivojlanishi natijasida quyidagilar ta'minlanadi:

-istiqbolli innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun klasterga resurslarni jalb etish;

-innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmalarini rivojlantirish;

-klasterning investitsiyalarni jalb etish xususiyatlarining ortishi;

-yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun takliflarning o'sishi;

-malakali mutaxassislarni qayta tayyorlash imkoniyatlarining ortishi.

AQSh tajribasi (innovatsion klasterlarning yuzaga kelishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish) shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiya (sanoat) klasterlari o'zaro bog'liq tarmoqlar zich joylashgan hududda mintaqa miqyosida qaror topishi mumkin ekan. Birinchidan, mintaqaviy innovatsiya-sanoat klasterlari negizini hamkorlikdagi ilmiy asosga tayanadigan, texnologik tarmoq deb ataladigan yangi texnologiyalar, bilimlar, mahsulotlar qaror topgan barqaror tizim tashkil etar ekan.

Ikkinchidan, klaster korxonalarida ichki ixtisoslashuv va standartlashuvni amalga oshirish, innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati mavjudligi tufayli qo'shimcha raqobat ustunliklariga ega bo'ladi.

Uchinchidan, innovatsiya-sanoat klasterlarining muhim xususiyati-ular tarkibida moslashuvchan tadbirkorlik tuzilmalari- kichik korxonalarning mavjudligida, ular mintaqa iqtisodiyotini o'stirishning innovatsiya tugunlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

To'rtinchidan, mintaqaviy sanoat klasterlari kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda juda muhim o'rin tutadi: ular kichik firmalar uchun muayyan bir tadbirkorlik sohasiga xizmat ko'rsatish maqsadida yuqori ixtisoslashuv darajasini ta'minlab beradi, bu esa sanoat korxonasi kapitaliga ega bo'lish yo'lini bir qadar engillashtiradi, shuningdek, g'oyalar almashinuvi va mutaxassislar tomonidan tadbirkorlarga bilimlar berish faollashadi.

Bir-biriga bog'liq institutlar va tarmoqlar tizimining yuqori darajada rivojlanishi klasterlar raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Bir tomondan, bu bozor munosabatlari va samarali raqobat natijasi bo'lsa, boshqa tarafdin esa, milliy innovatsiya tizimining shakllanishi va malakali kadrlarning kirib kelishi ustida to'xtaladigan bo'lsak, bu so'zsiz davlatning olib borgan siyosati xizmatidir.

Shunday qilib, klaster deganda, tarkibiga shuningdek ta'minotchilar, texnologiyalar va nou-xau yaratuvchilar (universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, injiniring kompaniyalari), qiymat yaratishning yagona zanjiri doirasida bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan bozor institutlari va iste'molchilarni bog'lovchilar (brokerlar, maslahatchilar)ni ham o'z ichiga olgan mustaqil ishlab chiqarish va (yoki) servis firmalari tarmog'i tushuniladi.

1.3. Mintaqa raqobatbardoshligini oshirishning klaster tizimlari va shakllari

Globalashuv jahondagi zamonaviy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch bo`lib hisoblanadi va har qanday murakkab hodisa kabi yangidan yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi-yangi havflarni ham yuzaga keltiradi. O`zbekiston bozor iqtisodiyoti endi rivojlanib kelayotgan mamlakat sifatida unga samarali tarzda moslashib borishi va ayni vaqtda raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni ham qaror toptirish lozim. Shunga bog`liq ravishda, jahonda integratsiyalashish jarayonlari kuchayib borayotgan bir vaqtda, barqaror rivojlanishga o`tish deganda davlatlararo va xalqaro miqyoslarda olib boriladigan iqtisodiy munosabatlarni mamlakat ichida tartibga solishning yangi pog`onalarini shakllantirish nazarda tutiladi. Mana shuning uchun ham bozor islohotlari yanada chuqurlashib borayotgan sharoitlarda raqobatbardoshlik va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari milliy xo`jalik yuritish nazariyasi va amaliyotida eng muhim o`rin egallaydi.

Milliy xo`jaliklarni barqaror rivojlantirish bo`yicha yutuqlar sari etaklaydigan strategiya eng avvalo, iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini tushunishga yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish va real sharoitlarni baholashga bevosita bog`liq bo`ladi. Bozor muhitida turli pog`onalarni egallab turgan iqtisodiy tizimlar faoliyat ko`rsatishining muhim omili sifatida ko`riladigan raqobatbardoshlikni tan olishga asoslangan tizimli metodologik yondashuv milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo`yicha yaxlit bir tizimni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida qaror topishi milliy iqtisodiyotlarning o`zaro bir-biriga bog`liqligi kuchaygan sharoitlarda yuz bermoqda. Jahondagi tartib-qoidalar bunday jadal o`zgarayotgan sharoitlarda milliy iqtisodiyotlarning raqobat ustunliklaridan foydalanish masalalari birinchi darajali ahamiyat kasb etib bermoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy modernizatsiyalash dinamikasi jamiyatning ochiq iqtisodiyot tomon harakatlanishini ko`rsatmoqda, buni esa ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy munosabatlarning o`zgarishida, milliy

bozorlarning jahon bozorining bir qismi sifatida shakllanishida, O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qayta qurilishlarida ham ko'rish mumkin.

O'zbekistonda modernizatsiya qilishning o'ziga xosligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Chunki, bizning jamiyatda so'z faqat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish ustida borayotgani yo'q, balki milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish, yangi institutsional muhit yaratib berish va samarali iqtisodiyotni shakllantirish ham talab etilmoqda. Bugungi kunda, milliy iqtisodiyotlarning raqobat ustunliklarini belgilab beruvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bir qatorda, bozor hamda O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini kuchaytirishning amaliy jihatlari ham o'zgarib turgan sharoitlarda iqtisodiyotlar raqobatbardoshligining o'zaro bog'liqligi muammolarini qat'iy ilmiy tahlil qilish zaruriyati shak-shubhasiz bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, nisbatan yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy tizimlarning faoliyati, ularning raqobatbardoshligi va barqaror iqtisodiy o'sishi, birinchi navbatda, yangi texnologiyalarning tarqalishini kuchaytiruvchi omillarga bog'liq ekan. Bizning fikrimizcha, hozirgi zamonaviy raqobat ustunliklari deyarli to'liq ravishda ishlab chiqarish, boshqaruv, tovarlar harakatini tashkil etishning mukammal ishlab chiqilgan texnologiyasi hisobidan ta'minlanadi, iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini muvaffaqiyatli tarzda rivojlantirishga esa klaster mexanizmi nazariyasi hamda innovatsion rivojlanishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanib amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Samarali "klaster strategiyalari" so'nggi o'n yil ichida ayniqsa ommalashdi. Klasterlar tadbirkorlik amaliy markazlarida yaratiladi va ular jahon bozorida o'z kuchi va raqobatbardoshligini ko'rsata oldi. Davlat mavjud klasterlarga yordam ko'rsatadi va avval bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan yangilarining yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi. Klasterlar strategiyasi Evropa mamlakatlarida keng qo'llaniladi.

Masalan, Germaniyada 1995 yildan buyon Bio Regio biotexnologik klasterlarni yaratish dasturi ishlab turibdi. Buyuk Britaniyada hukumat Edinburg, Oksford atrofida va Janubi-Sharqiy Angliyada biotexnologik firmalarni joylashtirish uchun muhim hududlar sifatida joy ajratgan. Norvegiyada hukumat "dengiz xo'jaligi" klasterida firmalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Finlyandiyada 1995 yilda

Advantage Finland-The Future of Finnish Industries nomi bilan keng miqyosli tadqiqot yo'lga qo'yildi va unda salohiyatli klasterlarning rivojlanish yo'nalishlari belgilab olindi va raqobatbardoshlik istiqbollari baholandi. Finlyandiya iqtisodiyotni tadqiq etish instituti (ETLA) tomonidan to'qqizta asosiy klaster identifikatsiya qilindi: axborot-telekommunikatsiya, metallurgiya, energetika, biznes-xizmatlar, sog'liqni saqlash, mashinasozlik, oziq-ovqat va qurilish.²³ Mazkur klasterlar tarkibidagi firmalar o'rtasida bilimlar tarqatish yuzasidan olib borilgan uzviy hamkorliklar ularning asosiy raqobatchilari oldida raqobat ustunligini ta'minlab berdi (Finlyandiya ham tadqiqotchilik, ham texnologik kooperatsiyalar bo'yicha peshqadamlik qiladi).

Shunday qilib, yondoshuvlarning turli-tumanligiga qaramay, Evoropadagi qator mamlakatlar o'zi uchun u yoki bu klaster strategiyalarini ishlab chiqqan. Hozirgi vaqtda ekspertlar tomonidan klasterlarda qaror topgan etti jihat tavsiflab berilgan (ko'p holatlarda ular uyg'unlikda uchraydi). Mana shu jihatlar klasterlar strategiyasining yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi (1.3.1-jadval).

Odatda klasterlar, ishlab chiqarishning texnika va texnologiyalar sohasida keskin siljish bo'ladigan va kelgusida yangi bozorlarga chiqish istiqboli bo'lgan sohalarda shakllanadi. Shunga bog'liq holda, ko'plab mamlakatlar – iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda, bozor iqtisodiyotiga endi qadam qo'yayotgan mamlakatlar ham nisbatan istiqbolli yo'nalishlarni va tadbirkorlik faoliyati turlarini qo'llab-quvvatlash, o'z milliy innovatsiya tizimlarini (MIT) yaratish va tartibga solish maqsadlarida klaster yondashuvidan yanada faolroq foydalanmoqdalar.

MIT bo'yicha IHRT (OESR) dasturida sanoat klasterlariga faoliyati doirasida yakuniy mahsulot va qo'shilgan qiymat yaratiladigan, bir-biri bilan birlashib ishlab chiqarish zanjirini shakllantiradigan o'zaro uzviy bog'liq firmalarning ishlab

²³ Дырдонова А.Н. Методические подходы к выявлению и оценке кластеров в экономике региона. М.: Региональная экономика: теория и практика. № 28(163),2010,с.26.

chiqarish tarmoqlari sifatida ta'rif beriladi. Bunday tavsiflangan klasterlarni amaliy ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion tizimlar deb hisoblash mumkin²⁴.

1.3.1 - jadval

Klasterlar strategiyasini shakllantiruvchi muhim jihatlari²⁵

№	Nomlanishi	Mazmuni
1.	<i>Geografik</i>	Tub mahalliydan boshlab (masalan, Niderlandiyadagi dehqonchilik) haqiqatan ham global (aerokosmik) ahamiyatdagi iqtisodiy faol hududiy klasterlarni yaratish
2.	<i>Gorizontal</i>	Bir nechta tarmoq/sohalar nisbatan yirik klasterlar tarkibiga kirishi mumkin (masalan, Niderlandiyadagi megaklasterlar tizimi)
3.	<i>Vertikal</i>	Klasterlarda ishlab chiqarish jarayonining aralash bosqichlari (zanjirlar tizimi, ta'minotchilar tarmog'i) ham bo'lishi mumkin. Bunday vertikal mazmundagi klasterlarda ishtirokchilardan qay biri klaster doirasidagi innovatsiya faoliyatining tashabbuskori va yakuniy timsoli bo'lishi muhim ahamiyatga ega
4.	<i>Lateral</i>	Umumiy imkoniyatlarga ega va miqyos samarasi hisobidan tejamkorlikni ta'minlab berishga qodir turli sohalar, bu o'z navbatida, yangi kombinatsiyalarni yuzaga keltiradi (masalan, hozirda shakllanib borayotgan multimediy klasteri)
5.	<i>Texnologik</i>	Aynan bir texnologiyalardan foydalanadigan tarmoqlar majmui (masalan, biotexnologik klaster)
6.	<i>Fokusga oid</i>	Yagona bir markaz-firma atrofida to'plangan firmalar klasteri, shoxobchalarga bo'lingan korxonalar tarmog'i, ilmiy markaz yoki o'quv muassasalari
7.	<i>Tadbirkorlik tarmog'i sifati</i>	Tarmoq – bu har doim ham firmalarning qulay majmui bo'la olmaydi, bu erda turli xil yangilanishlar qo'llab-quvvatlanadi. Ba'zida esa, aksincha, innovatsiya jarayonlari siqib qo'yiladi va himoya tartibi qo'llab-quvvatlanadi. Ta'minotchilar bilan munosabatlar innovatsiya jarayonlarini yanada kuchaytirishi mumkin, biroq ulardan xarajatlarni hamkorlar zimmasiga yuklash va moliyaviy munosabatlarda ularning huquqlarini cheklab qo'yish maqsadlarida foydalanilishi ham mumkin. Bunday holatda, tarmoqlar barqaror ham, kuchaytiruvchi ham bo'la olmaydi

Klasterli rivojlanish siyosati doirasida asosiy e'tibor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari bilan innovatsion faoliyat sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Klasterli tizimlardan foydalanish davomida, shuningdek,

²⁴ Кузнецов Е. Механизмы запуска инновационного роста в России/ Е.Кузнецов//Вопросы экономики. — 2003. — №3.

²⁵ Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan

gorizontal tarmoqlar ham qaror topadi, ularda bitta sanoat guruhi tarkibiga kiruvchi yoki aynan bir xil mahsulot bozorida ish olib boruvchi yirik va kichik firmalar hamkorlik qiladilar. Zamonaviy klasterlar, odatda, bir qancha sohalarni va aniq bir so`nggi mahsulot yaratish zanjirining muayyan bir bo`g`inida ixtisoslashadigan turli-tuman firmalarni qamrab oladigan tarmoqlar hisoblanadi. Klasterning xo`jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish-kooperatsiyalashish va boshqa o`zaro munosabatlarining umumiy modelidagi yana bir belgisi, ya'ni mahsulot yoki xizmatlarning aniq ifodasini topgan etakchi (yaxlitlashtiruvchi) omili aynan mana shundadir. Ko`pincha ushbu tamoyil yangitdan yaratilayotgan, ishlab turgan va rekonstruktsiya qilinayotgan korxonalar negizida klaster barpo qilayotgan, etakchi investorning eng muhim roli sifatida talqin qilinadi.

Kichik, o`rta va yirik biznes o`rtasidagi kooperatsion-xo`jalik munosabatlarining odatdagi shakllaridan farqli ravishda, klaster tizimlari quyidagi xususiyatlari orqali tavsiflanadi (1.3.2-jadval).

1.3.2 - jadval

Klasterli rivojlanishning o`ziga xos tomonlari²⁶

No	Mazmuni
1.	Butun tizimning uzoq muddatli xo`jalik, innovatsion va boshqa strategiyalarini belgilab beruvchi yirik etakchi korxonaning mavjud bo`lishi
2.	Klaster tizimidagi ishtirokchi xo`jalik sub'ektlari asosiy massasining hududiy maxalliylashuvi
3.	Xo`jalik yurituvchi sub'ektlar – klaster tizimi ishtirokchilari o`rtasidagi xo`jalik aloqalarining barqarorligi, ishtirokchilarning katta qismi uchun bu aloqalar ahamiyatining ustuvorligi
4.	Tizim ishtirokchilarining ishlab chiqarish dasturlari, innovatsiya jarayonlari doirasidagi o`zaro hamkorlik munosabatlarining davomli muvofiqligi
5.	Boshqaruv, sifat nazorati va boshqa asosiy tizimlar

Ishlab chiqarish-kooperatsiya va xo`jalik sub'ektlarining boshqa munosabatlari umumiy modelida klasterning ajralib turuvchi o`ziga xos tomonlaridan biri

²⁶ Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan

innovatsiyalarga yo`naluvchanlik hisoblanadi. A.A.Migranyanning fikricha, “...zamonaviy raqobat ustunliklari ishlab chiqarish, boshqaruv, tovarlarni harakatatini tashkil etish texnologiyalaridagi ilg`orlik, iqtisodiy tizimning muvaffaqiyatli rivojlanishi esa, innovatsion rivojlanishning zamonaviy kontseptsionalari va klaster mexanizmi nazariyalaridan kompleks foydalanish hisobidan ta'minlanadi”²⁷.

Zamonaviy sanoat-innovatsiyalarga oid faoliyatni rag`batlantirish siyosatida sanoat klasterlarini aniqlashda turlicha yondashuvlardan foydalanilmoqda. Ko`p holatlarda, klasterlar tarkibida bo`lgan sanoat tarmoqlari, mahsulotlar va bilimlarning tarmoqlararo harakati darajasidan kelib chiqqan holda guruhlariga ajratiladi va ular:

a) boshqa tarmoqlardan mahsulotlar va oraliq tovarlarni sotib olish hamda ularni ishlab chiqaruvchilari va foydalanuvchilari o`rtasida uzviy aloqada bo`lish orqali yuzaga keladigan texnologiyalar oqimidan;

b) patentlash, patentlarni o`zlashtirish, bir qancha aralash tarmoqlarda, shuningdek hamkorlikdagi tadqiqotchilik loyihalarida ilmiy xulosalardan foydalanishda o`z ifodasini topadigan texnik hamkorlikdan;

v) boshqaruvning eng yaxshi yutuqlarini keng yoyish maqsadida klaster bo`g`inlari o`rtasida xodimlarning harakatchanligidan iborat.

Shunday qilib, M.Porter nazariyasi yanada rivojlantirildi. Agar M.Porter klasterlar identifikatsiyasining asosini faqat geografik yoki hududiy yaqinlik deb hisoblagan bo`lsa, hozirgi vaqtga kelib esa tadqiqotchilar klasterlarning turli-tumanligi to`g`risidagi fikrga ko`proq yondoshadilar²⁸.

Klaster tashkil etish modellarida raqobatning o`zgaruvchan shakllari va raqobat ustunliklarining muhim manbalari ancha to`liq hisobga olinadi. Klaster metodi firma va tarmoqlarning yaxlit bir majmui uchun xos bo`ladigan texnologiyalar, malaka va ko`nikmalar, axborotlar, marketing hamda iste'mol talablari o`rtasidagi juda muhim bog`lanishlarni amalga oshirishga yo`l ochadi. Bu kabi o`zaro bog`liqliklar innovatsiyalarning yo`naluvchanligi va sur'atlariga, shuningdek so`nggi mahsulot raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko`rsatadi.

²⁷ Миграян А.А. «Теоретические аспекты формирования конкурентоспособных кластеров». - Интернет-ресурс: <http://www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html>

²⁸ Brown. R. Clusters, Supply Chains and Local Embeddedness in Fyrstad. European

Juda ko'p mamlakatlarda klasterli tahlil (yondashuv)dan milliy sanoat siyosatini shakllantirishda va amalga oshirishda keng foydalanilayotgani ham tasodif emas. Klasterli yondashuv tarmoqlar, davlat, savdo uyushmalari, tadqiqotchilik va ta'lim muassasalarining innovatsion jarayonlar bo'yicha o'zaro hamkorlik munosabatlari samaradorligini oshirishga yordam beradi. Klasterli yondashuv tadbirkorlik sohasi vakillari bilan davlat o'rtasidagi fan va ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolarini aniqlab olish, mavjud investitsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish va davlat siyosatida belgilab berilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan amaliy munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yirik mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb eta oladigan muayyan bir tarmoqni, investitsiyalash ob'ekti sifatida boshqalardan ajralgan holda ko'rib chiqib bo'lmaydi va u vertikal ravishda o'zaro bog'liq sohalar klasteri ichida rivojlanishi lozim. Yirik va diversifikatsiya qilingan iqtisodiyotlar, agar tarmoqlar va ta'minotchi korxonalar ahvolini yaxshilay olsalar, o'z raqobatbardoshligini tezroq oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'sib borayotgan talabni qondirish uchun mahsulot tarqatish va sotish bilan shug'ullanuvchi yangi firmalar yuzaga keladi. Bazaviy tarmoqning qaror topishi ta'minotchi tarmoqlar va iste'molchilar tarmoqlarining rivojlanishiga, shuningdek klasterga "taalluqli" xizmatlar bo'g'inining shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Klasterlar ichida kuchli korxonalar aralash korxonalarning aksiyalari paketini sotib olish va ularga turli ko'rinishdagi yordamlar (moliyaviy, texnik, boshqaruv va b.) ko'rsatishda o'z ifodasini topadigan faqat vertikal integratsiya strategiyasidan foydalangan holda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishlari mumkin.

Klaster xo'jalik tizimlarining yuqori darajadagi raqobatbardoshligi va barqarorligi, eng avvalo, yangi texnologiyalarning tarqalishini rag'batlantiruvchi omillarni, fan, ta'lim, moliyalashtirish, davlat siyosati va sanoat o'rtasidagi munosabatlar tavsifi va tarkibini belgilab beradi. Innovatsion faollikning nisbatan rivojlanib ketadigan klasterlari tarmoqlaro aloqalarning diversifikatsiyalashishi asosida shakllanadi. Klaster ichidagi texnologik bilimlar va aloqalarning turli-tumanligi va ularga ega bo'lish qulayligi ishlab chiqarish omillarining

uyg'unlashuvini ancha engillashtiradi va samarli innovatsiyalar uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratib beradi. Hududiy sanoat klasterlari zamon talablariga javob beradigan tadbirkorlikni rivojlantirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlardagi klasterlarning rivojlanish yo'llarining tahlili mintaqada klasterning mavjudligi va klasterdagi korxonalarning doimiyligi bilan bog'liq bir qator afzalliklarni aniqlab olish imkonini berdi:

- ishlab chiqarish omillarining nisbatan samarali uyg'unlashuvi, axborotlar olish imkonining kengayishi, faoliyatni yanada yaxshiroq tarzda muvofiqlashuvi, ijtimoiy boyliklar (malakali ishchi kuchi, ixtisoslashgan infratuzilma, kamayib boruvchi xarajatlar va h.k.) yaratish, raqobat kurashini rag'batlantirish, salbiy tavsifdagi raqobat ta'sirini cheklash natijasida mehnat unumdorligining o'sishi kuzatiladi;

- mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlar to'g'risida axborotga ega bo'lish, savdo, korxonani tashkil etish uchun barcha zarur resurslar, xususan, kerakli axborotlarni ham to'plash va olish imkoniyatlarining kengayishi tufayli klaster ichida yangi tadbirkorlik tuzilmalari yuzaga keladi;

- xaridorlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga jadal javob qaytara olish, eng kam xarajatlar bilan ta'minotni amalga oshirish yoki tajriba o'tkazishning yangi uslublari, texnologiyalari, imkoniyatlari to'g'risida axborotlar mavjudligi tufayli innovatsiyalarning keng miqyoslarda tarqalishi kuzatiladi.

Hech bir mamlakat barcha sohalarda raqobatbardosh bo'la olmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda xalqaro raqobatbardoshlikka dastlab alohida klasterlar doirasida ega bo'lingan va kuchaytirib borilgan. Shvetsiyaning selluloza-qog'oz sohasidagi raqobatbardoshligi yog'ochni qayta ishlash va qog'oz ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asbob-uskunlarga, konveyer liniyalariga va ba'zi aralash iste'molchitarmoqlarga ham tarqalib bordi. Daniyada agrobiznes va oziq-ovqat sanoati uchun o'ziga xos sanoat texnologiyalari ishlab chiqildi.

Xuddi shunday nemis avtomobilsoz va mashinasozlari ham Germaniyada bu tarmoqlar uchun tarkibiy qismlar ishlab chiqarish yuqori darajada taraqqiy etganidan katta foydaga egadirlar. Italiyada metallsozlik – kesuvchi asboblari, moda – dizayn,

charm – poyabzal, yog`ochni qayta ishlash – mebel tarmoqlari to`plangan sanoat rayonlarida maxsus klasterlar shakllangan.

Shu bilan bir qatorda, barcha mamlakatlar ham klasterlarni rivojlantirish bo`yicha ijobiy tajribaga ega emaslar, masalan, 1994 yilda Portugaliyada 33 klaster ajratilgan bo`lsa-da, ularning barchasi ham samarali bo`lmadi, buni esa ajratib olingan klasterlar avval boshdanoq raqobatbardosh emasligi yoki bir-biri bilan bog`lanmagan firmalarning oddiy to`plamidan iborat ekani orqali tushuntirish mumkin. Biroq shunga qaramay, ko`p holatlarda klasterlar alohida tarqoq korxonalarga nisbatan raqobatbardoshliroq hisoblanadi. M. Enrayt tomonidan 160 mintaqaviy klaster o`rtasida olib borilgan so`rovnoma natijalariga ko`ra, klasterlarning taxminan 60% jahon yoki mahalliy etakchilar qatoridan o`rin olgani va faqat 20% zaif raqobatbardoshlikka ega ekani ma'lum bo`ldi.²⁹

O`zbekistonda hozirgi vaqtgacha tarmoq klasterlari rivojlanmagan. Raqobatbardosh tarmoqlar klasterining yo`qligi respublikaning milliy ustuvor tomonlarini zaiflashtiruvchi jiddiy unsur bo`lib hisoblanadi. Ko`malashuvchi ishlab chiqarishlarning mavjud emasligi mahalliy korxonalarga jahondagi texnologik yangilanishlar bilan baravar qadam tashlashga imkon bermaydi³⁰.

Tarmoq klasterini yaratishda xom ashyo olishdan boshlab, qayta ishlash va mahsulotni sotishgacha bo`lgan butun texnologik zanjirning yuzaga kelishi natijasidagi sinergetik samaraning shkallanishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega, bu esa o`z navbatida, tarmoqning innovatsion jozibadorligini ortishiga sabab bo`ladi. O`zbekiston iqtisodiyotida klaster siyosatini amalga oshirilishi klaster ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilishi, innovatsiyalarga, texnologiyalarga, nou-xau, ixtisoslashgan xizmatlar va yuqori malakali kadrlarga ega bo`lish va boshqa imkoniyatlarining kengayishi hisobidan korxonalar raqobatbardoshligining o`sishiga yordam beradi.

²⁹ Enright M.J. Survey on the Characterisation of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy. University of Hong Kong, 2000,-21p.

³⁰ Р.Алимов, М. Камилова, Д. Курбанова. Кластерная концепция экономического развития: теория и практика Т.: ИЭ АН РУз, 2005г., с.36

Tarmoqlararo klaster murakkab tuzilishga ega bo'lib, uni faoliyatining kengligi, ishtirokchilarining turli-tumanligi va ularning hududiy joylashuvi, klaster ichidagi o'zaro munosabatlarning turlari, shuningdek tashqi muhitning klaster faoliyatiga ta'siri orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Klasterni shakllantirish bo'yicha tadbirlar ishtirokchilarining strategik maqsadlari, loyihani amalga oshirish maqsadlarida resurslarning qayta taqsimlanishi va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Klasterni shakllantirish bo'yicha institutsional stsenariyda mahalliy boshqaruv organlarining mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan klasterga oid tashabbuslarini ro'yobga chiqarish ko'zda tutiladi.

Klasterni shakllantirish chora-tadbirlari quyidagi bosqichlardan iborat: klaster salohiyatining asosiy modeli va tahlil qilish uslubi yaratish; klaster yaratish algoritmini ishlab chiqish; tashkiliy tuzilmasini shakllantirish; klaster yaratish bosqichlarining ketma-ketligini aniqlash va ularni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish (1.3.3-jadval).

1.3.3-jadval

Klasterli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va shakllantirishning asosiy bosqichlari

№	Bosqichlari va tadbirlar	Muhim natijalar
1	Klaster salohiyati tahliliga uslubiy yondashuvning shakllanishi	Mintaqalar iqtisodiyoti va tarmoqlari raqobatbardoshligi darajasini aniqlash, ichki va tashqi omillarni o'rganish, SWOT-tahlil; klasterli tahlil uslubi; ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish.
2	Birinchi bosqich natijalarini ko'rib chiqish	1.Muhokama qilish, tuzatish va tasdiqlash: - strategiyani ishlab chiqish bo'yicha kalendar rejani; - ustuvor yo'nalishlar ro'yxatini (tarmoq va mintaqalar klasterlari); 2. Loyihaning eng muhim, mahalliy rahbarini tayinlash
3	Strategiya ishlanmasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish	Tuzish: -strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi mahalliy hokimiyat, korxona va tashkilotlar vakilaridan iborat komissiyani; -asosiy yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan va alohida xususiy strategiyalarni yaratilishini ta'minlab beruvchi ishchi guruhlar; -etakchi va mustaqil olimlardan tashkil topgan ekspertlar kengashi (shu jumladan, tashqi ekspertlardan)
4	Strategik maqsadli yo'nalishlarni o'rganish va yo'lga qo'yish bo'yicha tahliliy ishlarni olib borish	1.Tadbirlar: -statistik ma'lumotlar tahlili; - SWOT-tahlilni nihoyasiga etkazish; -ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

		-yo`nalishlar bo`yicha ma'lumotlar to`plash. 2.Natijalar: -strategiya tuzilmasini yaratish; -“maqsadlar daraxti” va strategiya stsenariylarini shakllantirish; -asosiy strategik yo`nalishlar ro`yxatiga tuzatishlar kiritish.
5	Rivojlanish maqsadlari va asosiy strategik yo`nalishlarni muhokama qilish	1. Alohida yo`nalishlar bo`yicha tahlil natijalarini, maqsad va ustuvor yo`nalishlar, muhim strategik yo`nalishlar ta'rifini, alohida yo`nalishlar bo`yicha ishchi guruhlar tarkibi va tuzilmasini kelishib olish. 2.Strategiya kontsepsiyasini yaratish.
6	Ishchi guruhlarda klasterlarni rivojlantirishning alohida strategiyalarini tayyorlash	1. Loyihalarni va strategiyalarning har bir yo`nalishlari bo`yicha belgilangan vazifalarni nisbatan samaraliroq hal etuvchi boshqa chora-tadbirlarni baholash va tanlab olish. 2.Mustaqil ekspertiza o`tkazish: - alohida strategiyalar; - umumiy loyiha bo`yicha; - bahsli vaziyatlar va kelishmovchiliklar yuzasidan.
7	Avvalgi bosqichlarda bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va strategiyaning bazaviy versiyasining birinchi tahririni shakllantirish	1. Strategiyaning bazaviy versiyasining birinchi tahririni shakllantirish. 2.Ekspertiza tadbirlarini o`tkazish va quyidagi algoritm bo`yicha muvofiqlashtirish: - ishchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar ekspertizadan o`tkaziladi; - tuzatishlar kiritilgan materiallar ekspert kengashi tomonidan qayta ko`rib chiqiladi va ijobiy xulosa berilgan taqdirda ko`rib chiqib, tasdiqlanadi
8	Bazaviy versiyaning birinchi tahririni ko`rib chiqish	1.Strategiyaning birinchi tahririni ko`rib chiqish va tasdiqlash 2.Strategiyani kengaytirilgan kasbiy va umumiy muhokamasini boshlash to`g`risida qaror qabul qilish.
9	Strategiyaning birinchi tahririni kengaytirilgan muhokamasi	1.Strategiyaning birinchi tahriri ko`paytiriladi va etakchi korxonalar, asosiy tashkilotlar, mahalliy boshqaruv organlari o`rtasida tarqatiladi. 2.Matnning elektron versiyasi Internet-serverga joylashtiriladi. 3.Strategiyaning eng muhim yo`nalishlari respublika va mahalliy ommoviy axborot vositalarida chop etiladi.
10	Umumiy muhokamalarning xulosalarini umumlashtirish va tuzatishlar kiritish.	1.Ishchi guruhlar barcha e'tirozlar va qo`shimchalar bo`yicha asoslangan xulosalar tayyorlaydilar va strategiyaning ikkinchi, tuzatilgan tahririni shakllantiradilar. 2.Munozarali vaziyatlarda ekspert kengashi yakuniy xulosa qabul qiladi.
11	Strategiya bazaviy variantining ikkinchi taxririni shakllantirish	1.Strategiya bazaviy variantining ikkinchi taxririni shakllantirish: - tanlangan strategiyaning batafsil dalillarini hamda muayyan loyihalar va dasturlarni o`z ichiga olgan to`liq varianti; - taqdimot varianti.
12	Strategiya bazaviy variantining ikkinchi tahririni ko`rib chiqish	1. Ikkinchi tahrirni hukumat darajasida muhokama qilish. 2. Strategiya bo`yicha ilmiy-amaliy konferentsiya o`tkazish

Klasterning shakllanish bosqichlarining davomiyligi ko`p tomonlama resurslarning mavjudligiga, asosiy ishtirokchilarning manfaatdorlik darajasiga,

institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, kuchli klasterlarni ajratishning quyidagi algoritmi taklif etiladi:

- tovarlarning istiqbolli turlarini aniqlab olish, ya'ni mintaqadagi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan istiqbolli mahsulot turlari orasidan mahsulot eksportida ularning ulushini tahlil qilish asosida;

- iqtisodiyotning raqobatbardosh mahsulotlarining jahon bo'yicha ishlab chiqariladigan hajmi va narxлари dinamikasini o'rta va uzoq muddatli bashorat qilish;

- klaster yadrosini tashkil etishga qodir bo'lgan korxonalarning faoliyati samaradorligini aniqlab olish (istiqbolli mahsulotlarni ishlab chiqarish);

- klasterni rivojlantirish uchun zarur resurslarni belgilab olish. Tanlangan hudud doirasida joylashgan istiqbolli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarning xomashyo, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish kuchlari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil etiladi;

- infratuzilmaning klaster faoliyati uchun etishmaydigan elementlarini yaratish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;

- klasterning muhim ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchilar, ta'minotchilar)ning o'zaro hamkorlik darajasini aniqlab olish, istiqbolli korxonalar rahbarlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish asosida klasterning salohiyatli ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik qilish darajasi aniqlanadi.

Klaster strategiyasining samaradorligi, o'z navbatida, raqobat ustunligi manbaiga aylanib boradigan mamlakat, mintaq va tarmoq xususiyatlari negiziga quriladi. O'zbekiston sharoitlarida hududiy tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotning quyidagi sohalari bo'yicha klaster salohiyatini baholash zarur bo'ladi:

- agrosanoat majmuasi: to'qimachilik, meva-sabzavot va uzumchilik va h.k. Tabiiy-iqlim sharoitlarini e'tiborga olgan holda, tarmoq xususiyatlariga ko'ra raqobat ustunligiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga, eksport bozorlariga, rivojlangan infratuzilma tizimiga, tadqiqotchilik, kadrlar tayyorlash bazasiga, tarixiy tajribaga va klasterlik tuzilmasining boshqa tarkibiy qismlariga egadir;

-klasterli rivojlanish kimyo tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish va investitsiyalarni o'ziga tortuvchanligini kuchaytirishning istiqbolli institutsional shakli hisoblanadi. Geografik jihatdan yaqin savdo bozorlari, ishlab chiqarish kuchlari va etakchi korxonalarga ega bo'lgan gaz-kimyo majmuasi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun kuchli xomashyo bazasi mavjud;

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida klasterli yondashuvni rivojlantirish nuqtai nazaridan, kompyuter texnika parkini o'stirish, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish bilan bir qatorda, axborotlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini xal etish, elektron tijoratlashtirish sohasi xizmatlariga talabning ortishi dasturiy ta'minot ishlab chiqish outsorsingi sohasida eksport xizmatlarining o'sishi kabi juda muhim, biroq juda xilma-xil maqsadlar eng ahamiyatli dastlabki shartlar bo'lib hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya sohasida klasterlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashda davlat tomonidan infratuzilmalarni rivojlantirish sohasida olib boriladigan harakatlar (telekommunikatsiya kanallariga mablag'lar ajratish, texnoparklar va inkubatorlar qurilishi uchun joy ajratib berish, soliq-investitsiya kreditlari, kreditlar bo'yicha xavf-xatarlarni sug'urta qilish, korxonalarining marketing faoliyatiga moliyaviy jihatdan yordamlashish, investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faol siyosat yuritish va boshqa shu kabi moliyaviy yordam vositalariga ega bo'lish uchun sharoit yaratib berish) muhim ahamiyatga ega;

-respublikaning alohida mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ularning milliy va global darajadagi raqobatdoshligi kabi, tengsiz tarixiy-madaniy va tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari negizida tarmoqlararo sayyohlik-rekreatsion klasterlarni shakllantirishda mahalliy boshqaruv organlarining mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini kuchaytirish strategiyasini (infratuzilmalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va boshqalar yordamida) amalga oshirishga yo'naltirilgan klasterlik tashabbuslarini hayotga joriy etish ko'zda tutiladi.

2-BOB. MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

2.1. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsion muhitni o`rni

Respublika Prezidenti I.Karimov rahnamoligida istiqbol yillarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli O`zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi. E'tiborlisi, u tobora takomillashtirilib, yurtimizda chet ellik ishbilarmonlarning biznes faoliyatini yuritishi uchun keng ko`lamdagi imtiyozlar va afzalliklar joriy qilinayaptiki, bu o`zining yuksak samaralarini bermoqda. Iqtisodiyotimizning etakchi sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko`proq korxona tashkil qilingani buning yorqin isbotidir.

Tahlillarga qaraganda, o`zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin ko`payib, unda to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar ulushi oshib borayotgani, ayniqsa, 2012 yilda o`zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9,8 foizga, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar 9,6 foizga ko`paydi.

Jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining yuqori sur'atlarda o`sishi chet ellik investorlarning respublika iqtisodiyotining barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollariga ishonchi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Bu dunyoning aksariyat davlatlari global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish yo`llarini izlash bilan band bo`lib turgan, mavjud ish o`rinlari yopilib, ishsizlik darajasi ortayotgan, investitsiyalar oqimi susayib borayotgan bir paytda yurtimizda uzoqni ko`zlab, bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlarning hayotiyligi, O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi bilan ham izohlanadi. Natijada 2013 yil sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi 15,3 trillion so`mni tashkil etadi. Uning salmoqli qismi to`g`ridan-to`g`ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar ekanligi e'tiborga molikdir.

Respublikamizda xorijiy investorlar, shu jumladan, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirishga to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar sarflayotganlar uchun maqbul darajada qulay sharoit yaratib berish yo`lidagi islohotlar izchil ravishda davom ettirilmoqda. Prezidentimizning 2012 yil 10 apreldagi "To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni ushbu jarayonda hal qiluvchi omil bo`lmoqda.

Bu hujjatga asosan, taqdim etilayotgan imtiyozlar yangi-yangi hamkorlar topish, ularning sarmoyasi ishtirokida ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilish, mavjudlarini zamon talablariga mos ravishda texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda qo`l kelmoqda. Bu to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko`lamlarini kengaytirishga qo`shimcha chora tadbirlarning amaliy samarasidir.

Yangi loyihalar iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlari – engil, oziq-ovqat, kimyo, yog`ochni qayta ishlash, qurilish materiallari, mashinasozlik sanoati va boshqa yo`nalishlarda amalga oshirilgan bo`lsa, Toshkent shahrida ish boshlagan "Rieter Uzbekistan" xorijiy korxonasi – shulardan biridir. To`qimachilik mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mazkur yirik loyiha "O`zbekengilsanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi hamda Shveytsariyaning dunyoga mashhur "Rieter AG" kompaniyasi hamkorligida ro`yobga chiqarildi. Buning uchun 3,85 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilinib, korxonaning birinchi bosqichi ishga tushirildi.

1795 yilda tashkil etilgan "Rieter AG" bugungi kunda jahon bozorida to`qimachilik mashinalari va asbob-uskunolari etkazib beruvchi etakchi kompaniya hisoblanadi. Uning dunyo bo`yicha 6 ta asosiy ishlab chiqarish zavodi mavjud bo`lib, shulardan biri O`zbekistonda faoliyatini yo`lga qo`ygani iqtisodiy salohiyatimiz yuqoriligi, barqaror taraqqiyotimiz ifodasidir.

O`zbekiston jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan salbiy holatlarga qaramay, jadal rivojlanish sur'atini saqlab qolgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to`qimachilik sanoatida barqaror o`sinh sur'atlari kuzatilyapti. Bu O`zbekistonda

qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgani, xorijlik investorlar uchun ko`plab imtiyoz va engilliklar berilgani sharofatidir.

Engil sanoatda har yili o`nlab ana shunday loyihalar amaliyotga tadbqiq etilishi hisobiga o`zlashtirilayotgan sarmoyalar hajmi ham oshib borayapti. Mustaqilligimizning 21 yilligi bayrami tantanalari arafasida "O`zbekengilsanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tizimida 17 ta yangi korxona ishga tushirilgani, buning uchun 101,5 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etilgani buning tasdig`idir.

Shular qatorida viloyatimizning Shovot tumanida ishga tushirilgan "O`zteks Shovot" sanoat korxonasi ham bor. Bu korxona yiliga 5 ming tonna paxta tolasini qayta ishlashga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradi.

Ana shu istiqbolli loyihalar sharofati bilan mintaqalarda minglab yangi ish o`rinlari yaratilib, qo`shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi keskin o`sadi. Natijada mintaq iqtisodiyoti raqobatbardoshligi ta'minlanib, investitsiyaviy jozibadorligi oshadi, halqni moddiy farovonligi yanada yuksaladi.

Bugungi kunda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi muhim kuchga aylanib bormoqda. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda».

Respublikamizda kichik biznes sub'ektlariga imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlar ko`rsatishga ixtisoslashgan aloxida kredit muassasasi - Mikro kreditbankning tashkil etilganligi va uning faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo`llab-quvvatlanayotganligi mazkur sohani rivojlantirish nuqta-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ayni vaktida, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish bevosita ularning ishlab chiqarish jarayonini texnik va texnologik jihatdan qayta kurollantirishga bog`liq. Bu esa, o`z navbatida, ularning investitsion harajatlarini moliyalash amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Jumladan, kichik biznes sub'ektlari foydasining kapitallashtirish darajasi past bo'lib, ular foydasining aksariyat qismi joriy harajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlarida yuqori likvidli garov ob'ektlarining etishmasligi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida tajribaning etarli emasligi ularning investitsion harajatlarini moliyalashtirish hajmini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashkari, kichik biznes sub'ektlarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasi past. 2013 yilning 1 yanvar holatiga, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan barcha mijozlarga berilgan uzok muddatli investitsion kreditlar umumiy hajmida kichik biznes sub'ektlariga berilgan investitsion kreditlarning ulushi atigi 25,6 foizni tashkil etdi³¹. Xolbuki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 54,0 foizi kichik biznes sohasida yaratilmoqda, 2013 yilda yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortiq qismi ham aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yaratilishi ko'zda tutilmoqda³².

A.Vaxabovning ilmiy xulosasiga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari balansida yuqori likvidli garov ob'ektlarining etishmasligi sababli, Mikro kreditbank tomonidan kichik biznes sub'ektlari uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar to'liq o'zlashtirilmasdan qolmoqda. Shu sababli, ishlab chiqarish mahsulotlarini eksport qiladigan kichik biznes sub'ektlarining eksport jarayoni bilan bog'liq harajatlarini moliyalashtirish maqsadiga beriladigan tijorat banklari kreditlari bo'yicha davlat tomonidan kredit kafolatlarini joriy qilish lozim³³.

Fikrimizcha, A.Vaxabovning mazkur ilmiy xulosasi amaliy ahamiyat kasb etadi, bu esa, va tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilayotgan eksport kreditlari hajmining oshishiga olib keladi.

L.Zoyirov kichik biznes sub'ektlarini investitsiyalashning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan lizing asosida moliyalashtirish masalasini tadqiq qilgan va

Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz tarakkiyotini yangi boskichga kutaradigan yil buladi. -Toshkent.Uzbekiston, 2012. B.-18.

33 Vaxabov A.V. Banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyoti: zamonaviy xolati va rivojlantirish yunalishlari «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi matsiiallari - Toshkent: Moliya. 2011. — B. 41-42.

qator ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. Jumladan, uning kichik biznes sub'ektlariga banklar tomonidan beriladigan lizing kreditlari hajmini davlat mablag'lari xisobidan oshirish xususidagi taklifi muhim ahamiyatga ega. Ammo, L.Zoyirovning kichik biznes sub'ektlariga banklar va lizing kompaniyalari tomonidan beriladigan lizing kreditlari foiz stavkalarining yuqori chegarasiga limit belgilash to'g'risidagi taklifini munozarapi, deb xtseoblaymiz. Chunki, kreditlarning foiz stavkalariga limit belgilash kredit resurelari xarakatini izdan chiqarishi mumkin.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2013 yilda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga jalb qilingan investshshyalarning miqdori 2009 yilga nisbatan yuqori darajada o'sdi. Shuningdek, tahlil qilingan davr mobaynida respublika bo'yicha asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi sezilarli sur'atda (15,3 f.p.) o'sdi. Mazkur holatlar kichik biznes sub'ektlarini investitsiyalashni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat xisoblanadi. Ammo, 2013 yilda kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan bir so'mlik investitsiyalarga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori 2009 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, kichik biznes sohasiga jalb qilingan investitsiyalar miqdori bilan ularning samaradorligi o'rtasida ma'lum nomutanosiblikning mavjudligidan dalolat beradi.

Uzoq muddatli aktivlar hajmida yangi texnika va texnologiyalarga jalb qilingan investitsiyalar salmog'ining yuqori ekanligi investitsion harajatlarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish jihatidan ijobiy holat xisoblanadi.

2.1.1-jadval

Kichik biznesni investitsiyalashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	yillar					2013 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
	2009	2010	2011	2012	2013	
Kichik biznes sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar miqdori, mlrd. so'm	893,2	1365,3	2055,2	4745,8	5788,4	6,5 marta
Asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarda kichik biznesning ulushi, %	16,3	15,9	16,4	30,8	31,6	15,3 f.p.
Kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan bir so'mlik investitsiyalarga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori, so'm	14,4	13,0	11,7	8,6	9,1	63,2 %

2.1.2-jadval

Kichik biznesni kreditlash amaliyoti

Ko'rsatkichlar	yillar					2013 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
	2009	2010	2011	2012	2013	
Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar, mlrd. so'm	743,7	1250,8	1851,7	2690,2	4377,0	5,9 marta
Kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan mikrokreditlar, mlrd. so'm	110,0	252,0	322,1	485,0	752,3	6,8 marta
Kichik biznes sub'ektlariga banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning umumiy hajmida ularga berilgan mikrokreditlarning salmog'i, %	14,8	20,1	17,4	18,0	17,2	2,4 f.p.
Mikrokreditbaik tomonidan	42,6	63,5	90,8	121,4	159,7	3,7 marta

kichik biznes sub'ektlariga ko`rsatilgan imtiyozli mikrolizing bo'yicha mikromoliyaviy xizmatlar, mlrd. so`m						
--	--	--	--	--	--	--

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2009-2013 yillarda O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar, shu jumladan, mikrokreditlar miqdorining o`shish tendentsiyasi kuzatilgan. Ushbu tendentsiyaning mavjudligi banklar tomonidan kichik biznesni kreditlash siyosati izchillik bilan davom ettirilayotgashshgidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2.1.2-jadval ma'lumotlaridan kichik biznes sub'ektlariga banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning umumiy hajmida ularga berilgan mikrokreditlarning salmog'i 2013 yilda 2009 yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi ko`rinib turibdi. Bu esa, fikrimizcha, Mikrokreditbaik tomonidan berilayotgan kreditlarning imtiyozli foiz stavkasiga ega ekanligi va tahlil qilingan davr mobaynida banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan mikrokreditlar hajmining o`shish sur'ati brutto kreditlar hajmining o`shish sur'ati yuqori bo`lganligi bilan izoxlanadi.

- Respublikamizda 2013 yilda kichik biznes sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 2009 yilga nisbatan yuqori darajada o`sganligi, mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar umumiy hajmida kichik biznesning ulushi sezilarli darajada oshganligi ushbu sub'ektlarni investitsiyalashni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat xisoblanadi. Lekin, mazkur davrda kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan bir so`mlik investitsiyalarga to`g`ri keladigan mahsulot miqdorining sezilarli darajada pasayganligi ularni investitsiyalash miqdori bilan samaradorligi o`rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligini ko`rsatadi.

- Kichik biznes sub'ektlari ustav kapitalining o`z mablag`lari hajmidagi salmog`ini oshirish maqsadida ular foydasining kapitallashish darajasini oshirish lozim.

- Kichik biznes sub'ektlari joriy likvidlilik darajasi pasayishiga yul kuimaslik maqsadida, birinchidan, joriy aktivlarning o'sish sur'atini joriy passivlarning o'sish sur'atidan ortda kolishiga yul kuimaslik lozim; ikkinchidan, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish lozim; uchinchidan, ular tomonidan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya jalb qilishni amalga oshirish zarur.

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasining zaif ekanligini xisobga olgan holda, ularning xissali ishtirok etishidagi investitsiyalari hajmini oshirish yo'li bilan kichik biznes sub'ektlarini investitsiyalash imkoniyatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Hududda mintaqaviy klasterlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun davlat budjeti, halqaro moliya institutlari, mahalliy budjet, tijorat banklari, mikromoliyalash tashkilotlari, xususiy investorlar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'z mablag'laridan samarali foydalanish muhim xisoblanadi.

Bunday tarzda qo'llab-quvvatlanish ularning raqobatbardoshligi oshirilishiga, texnik va texnologik bazasi yangilanishiga, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini kamaytirish va diversifikatsiya qilinishiga, mehnat unumdorligi, foyda va rentabellik darajasi oshishiga erishiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini samarali moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va ularni rag'batlantirish maqsadida quyidagi chora - tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiy barqaror o'sishning uzoq muddatli sur'atlari va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi mahalliy dasturlarni ishlab chiqish;
- iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishiga yo'naltirilgan soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlashni amalga oshirish;
- qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish infratuzilmasini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;
- aholining ish bilan bandligini tizimli ta'minlash, tadbirkorlar manfaatidan kelib chiqib, banklar tizimini yanada takomillashtirish, aholi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini tijorat banklardagi depozitlarga jalb qilinishini rag'batlantirish;
- raqobatbardoshligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;


– qishloqlarda vujudga kelayotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o`rta sinf vakillari - mulkdorlar, tadbirkor va ishbilarmon sub'ektlar manfaatlarini himoyalashni kuchaytirish va boshqalar.

Bu borada taraqqiy etgan mamlakatlar ilg`or tajribalaridan foydalanib, autsorsing korxonalarini tashkil etish va ular faoliyatini davlat tomonidan rag`batlantirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Aynan shunday innovatsion xarakterga ega bo`lgan korxonalarni shakllantirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag`batlantirish, samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish mumkin.

Ishlab chiqarish faoliyati bilan bog`liq autsorsing xizmatlari birinchidan, raqobat bozoriga chiqish va yangi informatsion texnologiyalar rivojlanish jarayonida mahsulot (ish, xizmat)larning yangi turlarini yaratishga, ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayoni egiluvchanligini kuchaytirib, mahsulotlar diversifikatsiyasini amalga oshirishga, uchinchidan, nisbatan kam harajatlar sarflagan holda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga xizmat qiladi. Ana shu maqsadda mintaqalarning o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, IT-autsorsing bozorini shakllantirishni yo`lga qo`yish maqsadga muvofiqdir.

Bu esa, viloyatlarning iqtisodiy texnologik qurollanish darajasini yuksaltirishga, moliyaviy jihatdan resurslari cheklangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini IT-texnologiya resurslaridan samarali foydalanishga bo`lgan etyojlarini to`liqroq hamda nisbatan arzonroq qondirishga xizmat qiladi.

Mintaqalarning raqobatbardoshligini o`rganishning asosiy yo`nalishi uni miqdoriy jihatdan baholash hisoblanadi. Baholash turli uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu uslubiy yondashuvlar ko`p jihatdan raqobatbardoshlikni tarmoqlararo baholash bilan o`zaro bog`liqdir. Sanoatning (tarmoqlar va tovarlar) raqobatbardoshligini baholashning eng ommalashgan usullari quyidagi 2.2.1- chizmada keltirilgan.



Chizma. 2.2.1. Sanoatning raqobatbardoshligini baholash usullari

Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun 381 ta ko'rsatkichdan foydalaniladigan ko'p omilli modeldan foydalaniladi. Bunda ko'rsatkichlar sakkizta umumlashtirilgan omillarga guruhlashtirilgan (iqtisodiy salohiyat, tashqi savdo, davlat tomonidan tartibga solish, moliya-kredit tizimlari, infratuzilma, boshqaruv tizimi, ilmiy-texnikaviy salohiyat, mehnat resurslari)³⁴.

Mamlakatlar reytingini aniqlash uslubini mintaqalarning raqobat o'rnini aniqlashda ham qo'llash mumkin. Uning mohiyati mintaqalarning nisbiy o'rnini tavsiflaydigan alohida ko'rsatkichlarni umumiy ko'rsatkichlarga umumlashtirishdadir.

Shuning bilan birga alohida tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan raqobatbardoshlik ko'rsatkichlar tizimi turlicha tanlanadi va umumlashtiriladi. 2.2.2 – chizmada mintaqalarning raqobatbardoshligini indeks orqali baholash uslubiyotlari keltirilgan.

Umuman olganda, mintaqalar raqobatbardoshligini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan turli uslublari mavjud.

Bizningcha, mintaqaning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan salohiyatning mavjudligi va darajasi bilan aniqlanadi. Aynan salohiyatni baholash modellariga

³⁴ Проблемы и перспективы конкурентоспособности региональной экономики (материалы республиканского научного семинара). – Ташкент, 2004. – С. 12.

asoslangan yondashuv mintaqaning raqobat ustuvorliklarini aniq ko'rsatib beradi. Bunda mintaqaning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy turdagi salohiyatlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Mintaqa raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy salohiyatlar quyidagilar hisoblanadi: tabiiy resurslar salohiyati, inson omili, moliyaviy, ekologik va institutsional o'zgarishlar.


Raqobatbardoshlik darajasini oshirishning boshlang'ich bosqichida geografik joylashuv, agroiklim sharoitlari, er-suv, mineral-xomashyo va mehnat resurslarini o'zida jamlovchi tabiiy resurslar salohiyati asosiy rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ushbu omillaridan foydalanish darajasi jamiyatning innovatsion-rivojlanish modeliga o'tilishi munosabati bilan nisbatan pasayishi mumkin.

Ko'plab mintaqashunos olimlarning fikricha, mintaqalarning raqobatbardoshligi birinchi navbatda ularning geografik joylashuvi va resurslarning mavjudligi bilan bog'liqdir. Xalqaro tajribalar, shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, geografik joylashuv va resurslarning nisbiy afzalliklari aniqlangandan keyin mintaqalarning o'zaro raqobati vujudga kelgan³⁵.

Shuningdek, mintaqaning raqobatbardoshligi aholining turmush darajasi, infratuzilmalarning rivojlanishi, ekologik holat va boshqa bir qator omillarga ham bog'liqligini ta'kidlash lozim.

Mintaqaning raqobat ustuvorligini faqat undagi tabiiy salohiyat va foydali qazilmalarning mavjudligi bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi. Hozirgi sharoitda mintaqaning nisbiy raqobat afzalliklaridan samarali foydalanishning mukammal mexanizmlari va dasturlarini ishlab chiqishda, belgilangan maqsadlarga erishishda davlatning faol aralashuvi zarurdir.

³⁵ Маергойз И.М. Территориальная структура хозяйства.— Новосибирск: Наука, 2001. - С. 308.



Chizma. 2.2.2. Mintaqalar raqobatbardoshligini indeks orqali baholash³⁶

M.Porter o'zining keng ommalashgan tadqiqotida raqobatbardoshlikni oshirishning mexanizmi sifatida “sanoat klasterlari” tushunchasini kiritadi. Shundan so'ng olimlar klaster tushunchasini yanada kengroq talqin eta boshlashdi va turli ta'riflar berishdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy olimlarning ishlanmalarida klasterning 20 dan ortiq ta'rifini ko'rish mumkin. Klasterning mohiyati quyidagi ta'rifda nisbatan kengroq yoritilgan: Klaster bu – o'zida qiymat hosil qiluvchi yagona zanjir doirasida bozor institutlarini va iste'molchilarni, mustaqil

³⁶ Manba: Ларина Н.И. Кластеризация как путь повышения конкурентоспособности регионов / ЭКО. - 2006. - №10. - 18-19 с.

ishlab chiqarish servis shakllarini, ta'minotchilarni, texnologiya va nou-xaular yaratuvchilarni o'zaro birlashtiruvchi tizimdir³⁷.

Ilmiy adabiyotlarda klaster bilan bog'liq bo'lgan, uni ishlatish ob'ektini hisobga olgan holda turli terminlar ishlatila boshlandi.

Shunday qilib, mintaqaviy, sanoat, tashqi iqtisodiy, geografik va boshqa klasterlar paydo bo'ldi. Olimlar o'rtasida klasterlarni tashkil etishda sanoat zonolari, tarmoqlararo majmualar, hududiy ishlab chiqarish majmualari orasida bog'liqlik bor, degan fikr ham mavjuddir³⁸.

Turli fikr va mulohazalarni o'rgangan holda biz mintaqaviy klasterga quyidagicha ta'rif berdik: Mintaqaviy klaster – bu aniq bir mintaqada raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi, o'zaro aloqador va bir-biriga geografik jihatdan yaqin joylashgan korxonalar guruhidir.

Mintaqaviy klaster tushunchasi birinchi marta amerikalik iqtisodchi M.Erneyt tomonidan kiritildi. Uning fikricha, mintaqaviy klaster – bu sanoat klasteri bo'lib, klasterdan ishtirokchi firmalar geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan bo'lishi lozim³⁹.

MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda mamlakat va mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishda klaster uslubidan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaviy klaster siyosatining asosiy yo'nalishlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mintaqalarda klasterning tarkibi va shaklini aniqlash, mintaqqa iqtisodiy o'sishiga ularning ta'sirini baholash;

- yuqori imkoniyatli mintaqaviy klasterlar uchun ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etish;

- klasterlarni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini shakllantirish;

- tashqi bozorlarga chiqish uchun klaster korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

³⁷ Афанасев М. Мировая конкуренция и кластеризация экономики // Вопросы экономики. – 2005. - №4. - 75-86 с.

³⁸ Малов В.Ю. ТПК и кластеры / ЭКО. – 2006. - №11. - 2-7с.

³⁹ Ларина Н.И. Кластеризация как путь повышения конкурентоспособности регионов / ЭКО. – 2006. - №10. – 8 с.

-alohida mintaqalarda klasterlarni rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlangan tahliliy tadqiqotlar o'tkazish.

Klasterlarda guruhlar orqali o'zaro aloqador kompaniyalarni texnologiyalar, axborotlar, xomashyolar, iste'molchilar va sotish kanallari kabi mavjud resurslar birlashtiradi. Bu esa ularga yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritishlariga imkon beradi.

Klasterda ishtirok etish evaziga kompaniyalar bozor imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulotlarini sotish bilan bog'liq bo'lgan o'sib borayotgan harajatlarni pasaytirish, boshqarish va ijara, moliyaviy institutlar reytingini oshirishda va investitsiyalarni yanada kengroq jalb qilish kabilardan manfaatdor bo'lishadi.

Mintaqaviy darajadagi klasterlarni tashkil etish tajribalari O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyatga ega. Klasterlarni tashkil etishga asoslangan mintaqaviy sanoat siyosati Hindiston, Xitoy, Malayziya, Koreya Respublikasi, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlarda o'z samarasini bermoqda. Ushbu mamlakatlarning barchasida klasterlarning muvaffaqiyati asosan qulay me'yoriy-huquqiy asosning tashkil etilganligi, shuningdek, innovatsion salohiyatdan keng ko'lamda foydalanilganligi bilan izohlanadi.


Mintaqaviy klasterlarning samaradorligi uch asosiy ishtirokchilar – davlat, xususiy kompaniyalar va ilmiy-tadqiqot markazlarining o'zaro hamkorliklari bilan izohlanadi.

Klasterlashtirishning ijobiy tomonlarini umumlashtirgan holda, mintaqaviy xo'jaliklar va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi uslubiy yondashuvni taklif etish mumkin (2.2.3 - chizma).

Mintaqada klasterlarni shakllantirish bo'yicha harakat bosqichlari aniq bir korxonaning raqobatbardoshligini, manfaatdor kompaniya va firmalarning maqsadli guruhni tashkil qilish imkoniyatlarini baholashdan boshlanadi. Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, raqobatbardoshlikning asosiy omillari, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmalarining quvvatlari, malakali ishchi kuchining mavjudligi bosqichma-bosqich tarzda chuqur tahlil qilinadi.

Mintaqa iqtisodiyotining kuchli va kuchsiz tomonlari, uning nisbiy ustuvorliklari aniqlanadi. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'sir etadigan tashqi omillar, tashqi bozorlar konyunkturasi alohida ko'rib chiqilishi lozim.

Mintaqani majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasiga chambarchas bog'liq holda klasterning raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish, mintaqaviy klasterlarni tashkil etishning aniq mexanizmi va monitoring tizimini aniqlash asosiy bosqich hisoblanadi.



Chizma. 2.2.3. Klasterlashtirish asosida mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish bosqichlari⁴⁰

⁴⁰ Якубов И.А. Конкурентоспособность экономики регионов Т.: "Узбекистан, 2006."

Umuman olganda, mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishni uning raqobatbardoshligi tushunchasi bilan bog'liq holda o'rganish yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mintaqalarning raqobatbardoshligi nazariyasidan foydalanish har bir mamlakatning milliy manfaatlarini amalga oshirish, isloh qilish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish modellarini amaliyotda qo'llash, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida mintaqalarga investitsiyalarni jalb qilishda va ularning strategik zahiralaridan foydalanishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali nisbiy afzalliklardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'plab uslubiyotlarning orasida mintaqalarning nisbiy ustuvorliklarini nisbatan to'liq ochib bera oladigan salohiyatlar orqali ularning raqobatbardoshligini baholash eng oqilona usul hisoblanadi.

Raqobatbardoshlikning asosiy elementi klasterlar hisoblanadi. Turli mamlakatlarda shakllangan klaster siyosati hozirda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Ko'plab terminlar va tushunchalarning orasida mintaqaviy klaster o'zida raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi o'zaro geografik yaqin joylashgan va aloqador korxonalar guruhini aks ettiradi.

Klasterlar orqali mintaqalarning raqobatbardoshligini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va aniq bir mintaqaning nisbiy raqobat afzalliklaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin.

Mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning uzoq kelajakka mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi mintaqalar raqobatbardoshligini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

2.3. Mintaqada klaster tizimidan foydalanish istiqbollari

O'zbekistonda 2002-2013 yillarda kichik biznes jadal rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Shu davrda ro'yxatga olingan kichik biznes sub'ektlari soni 238,3 foizga, jumladan, amalda faoliyat yuritayotganlari soni 149,3 mingtadan 454,1 mingtagacha, ya'ni 3,1 barobarga, ularda ish bilan bandlar soni esa 1,9 barobarga o'sdi (2.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Kichik biznes sub'ektlarining rivojlanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2002	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Ro'yxatga olingan KBXT sub'ektlari, mingta	182,9	308,7	384,1	422,3	435,9	452,9	459,5	461,2
Amalda faoliyat yuritayotgan KBXT sub'ektlari, mingta	149,3	268,6	346,1	391,9	398,6	422,9	425,0	427,3
KBning ro'yxatga olinganlar sonidagi ulushi, %	81,6	87,0	90,1	92,8	91,4	93,4	93,6	93,9
KB sub'ektlarida ish bilan band bo'lganlar, ming kishi	4467,1	6679,0	7258,6	7682,5	8024,1	8402,3	8639,3	8914
KBning iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidagi ulushi, %	49,7	64,5	69,3	71,9	73,1	73,9	74,3	74,8
KB sub'ektlarining YaIMdagi ulushi, %	31,0	38,2	42,1	45,3	48,2	50,1	52,4	54,0
Eksportdagi ulushi, %	10,2	6,0	10,7	14,7	12,3	14,6	13,6	18,8
Importdagi ulushi	27,4	32,4	34,5	34,5	38,5	42,5	36,6	37,4
1000 kishiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari	5,7	10,3	13,2	14,7	14,7	15,0	15,1	15,2
Ajratilgan kreditlar hajmi, mlrd. so'm	102,90	419,9	547,4	743,7	1250,8	1851,7	2690,2	3536

2002-2013 yillar mobaynida respublikamizda faoliyat yuritayotgan biznes sub'ektlarining ro'yxatdan o'tganlar sonidagi ulushi 81,6 foizdan 93,6 foizga o'sdi. Shu yillarda kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi 47,9 foizdan 74,8 foizgacha oshdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining milliy iqtisodiyot tarmoqlari yalpi mahsulotidagi ulushi ham o'sib bormoqda. Masalan, ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2002-2013 yillarda 10,5 foizdan 21,0 foizgacha, qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi esa 68 foizdan 97,9 foizgacha, qurilishda 37 foizdan 70,4 foizgacha, savdoda esa 45,3 foizdan 47,0 foizgacha o'sdi (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulushi, %

Tarmoqlar	2002	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Sanoat	11,3	10,7	9,8	10	12,9	13,9	16,9	19,6	21,0
Qurilish	37	48,5	49,4	51	53,7	58,5	41,6	52,3	70,4
Chakana savdo	45,3	42,2	43,7	45,3	47,2	47,2	46,5	50,5	47,0
Aholiga pulli xizmat	37,9	47,9	52,5	50,9	50,5	49,1	48,7	47,7	46,4

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni AQShda 20,1 ta, Yaponiyada 44,7 ta, Portugaliyada 83,5, Frantsiyada 41,4, Germaniyada 38,7, Buyuk Britaniyada 73,8, Italiyada 65,7 tani tashkil etadi⁴¹.

O'zbekistonda esa har 1000 kishiga 1999 yilda 5,1 ta, 2011 yilda esa 15,2 ta kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari to'g'ri keldi. 2000-2010 yillarda rivojlangan davlatlarda 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes sub'ektlari soni o'rtacha yiliga olti foizdan o'sgan. Evropa va Markaziy Osiyo davlatlari ushbu ko'rsatkich

⁴¹ Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среднего бизнеса//Международная финансовая корпорация, 2003. - С.15-16.

bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar (yiliga o'rtacha 15 foizdan o'sish)ga erishdilar. Buning sababi, ushbu davlatlarda xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilishi va Sharqiy Evropa mamlakatlarining Evropa Ittifoqiga qo'shilishidir⁴².


O'zbekistonda kichik biznes sektorini tahlil qilish natijalari ushbu sektorda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish tendentsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Ammo, erishilgan ko'rsatkichlar va rivojlanish sur'atlari aholi farovonligi va iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos kelmasligi ham mumkin: birinchidan, O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 54,0 foizni tashkil qilishiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoatda etakchi o'rinni egallay olmayapti; ikkinchidan, biznes uchun mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muhit tadbirkorlar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun etarli darajada emas, hamon me'yoriy va huquqiy sohalarida kichik biznes rivojlanishiga to'siqlar mavjud; uchinchidan, kichik biznes rivojlanishi ko'rsatkichlari hududiy jihatdan tahlil qilinganda, viloyatlarda nomutanosiblik kuzatilmoqda; to'rtinchidan, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatga ega bo'lgan eksport-import operatsiyalarida kichik biznes sub'ektlari faoliyatini etarli darajada deb bo'lmaydi.

O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati erkinligi va kafolatlari huquqiy asosini, ularni ro'yxatga olish va tugatish, soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlash, sug'urtalash, moddiy-texnika ta'minoti, davlat haridlari tizimi va boshqalarni o'z ichiga olishi kerak (2.3.1-rasm). Bunday xatti-harakatlarning majmui o'zini-o'zi boshqaruvchi mahalliy idoralar, shaharlar, tumanlar va viloyat xokimliklari va respublika darajasidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

⁴² Khrystyna Kushnir, Melina Laura Mirmulstein, and Rita Ramalho. Micro, Small, and Medium Enterprises Around the World: How Many Are There, and What Affects the Count. ShS / World bank. MSME Country Indicators. 2010. p.4

- moliyaviy oqimlarning ochiqqligi, huquqiy-normativ bazani shakllantirishda o'zaro samarali hamkorlikni ta'minlaydigan davlat va nodavlat sektorlari o'rtasida tashkiliy va informatsion tizimlarni rivojlantirish;
- bozorga yangi korxonalar kirishini rag'batlantiradigan va samarasiz bo'lgan korxonalar uchun o'z vaqtida sanatsiya va bankrot, deb e'lon qilish jarayonlari amal qilishini ta'minlaydigan raqobat muhitini rivojlantirish;
- raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalar yaratish va ularning transfer qilish jarayonlarini rivojlantirishni rag'batlantirish.



2.3.1-rasm. Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari

Fikrimizcha, kichik biznesning hududlar va mamlakatdagi raqobatbardoshligiga klasterlarni tashkil qilish orqali ham erishish mumkin. Klaster bu jug`rofiy jihatdan yaqin bo`lgan, ma'lum bir sohada faoliyat ko`rsatadigan va faoliyatida bir-birini to`ldiradigan korxonalar, kompaniyalar guruhidir⁴³.

Buning uchun, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida viloyat, tuman va shahar xokimliklari rahbarlari mavjud resurslar va hudud salohiyatidan kelib chiqib, qaysi sohada klasterlarni tashkil qilish imkoniyati mavjudligini aniqlashlari lozim.

Undan keyin, kichik biznes klasteri tashkil qilish chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Kichik biznesni qo`llab-quvvatlash tizimida muhim mexanizmlardan yana biri kichik va yirik biznes integratsiyasidir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uning innovatsion rivojlanish yo`liga o`tishi ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish sohalari sub'ektlarining o`zaro barqaror aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik va yirik biznesning innovatsion integratsiyalashuv darajasi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishining asosiy ta'sir etuvchi vositalaridan biri bo`lishi lozim. Shu sababli, kichik va yirik biznes integratsiyasiga ko`maklashuvchi infratuzilmani yaratish orqali tadbirkorlik faoliyatining huquqiy himoyalanihini, yangiliklar va mahalliy hamda xorijiy tajribalardan habardor bo`lishi, informatsion bazalardan keng ko`lamda foydalanishni tashkil qilish, o`zaro hamkorlik jarayonida sodir bo`ladigan xavf-xatarni kamaytirish kabi holatlar kafolatlanishini ta'minlash lozim.

Shundagina kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotdan ulushi yanada oshadi, o`rni yanada mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning hozirgi bosqichida fermer xo`jaliklari barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqobat muhitini shakllantirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot etishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yurituvchi mexanizmlarni joriy qilish dolzarb vazifalardan xisoblanadi.

⁴³ Портер М. Конкуренция. М. СПб., Киев: Издательский дом «Вильямс», 2006. - С. 258

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklari barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularning raqobatbardoshligini oshirishdagi mavjud muammolar, nomutanosibliklarni aniklash va hal etishni majmuaviy shaklda chuqur tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida barqaror iqtisodiy o'sishga erishishii ta'minlash ustun darajada fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligiga bog'liq. Jaxon amaliyoti ko'rsatishicha, agrar soha istiqbolida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda yangi fermer xo'jaliklarini tashkil etish emas, balki ularning erkin raqobat muhitidagi raqobatbardoshligini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, - «Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jaxon iqtisodiyotida etakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil islox etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish xisobidan amalga oshirilishi mumkin»⁴⁴.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish uchun raqobat muhitini shakllantirishga bag'ishlangan tahlillarni amalga oshirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, ularning ixtisos-lashuviga qarab maqbul darajada joylashtirish va samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

⁴³ Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent: «Uzbekiston», 2012. - B 36.

Bozor munosabatlari sharoitida fermer xo'jaliklari barqaror rivojlanishini rag'batlantiruvchi omillardan biri-ularning raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kengaytirish va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatida tegishli bozor segmentlari standart talablariga javob beradigan sifatli raqobatbardosh tovarlar taklif qilish, ular assortimentini bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar talablari asosida kengaytirib borishni takozo etadi. Zotan, fermer xo'jaliklari raqobatbardoshlik darajasi ular tomonidan taklif qilinayotgan tovar (mahsulot) iste'moli va qiymat (narx) ko'rsatkichlarida mujassamlanadi.

Fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligi rivojlanishida qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari alohida o'rin tutib, agrar sohada raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhitining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhiti kategoriyalari mazmunan va mohiyat jihatidan o'zaro yaqin bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi.

Fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligi kategoriyasi ko'p qirrali, murakkab tushuncha bo'lib, muayyan bir fermer xo'jaligi o'zining mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil qilish uchun boshqa qator tayyorlash, sotish, qayta ishlash, turli agroservis xizmatlari ko'rsatish va moliya-kreditlash kabi infratuzilma sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishishga majburdir. Aynan shu munosabatlar tizimida boshqa barcha fermer xo'jaliklari ishtirok etadi va ular o'rtasida raqobat vujudga kelib, ushbu jarayon o'z navbatida raqobat muhitining shakllanishiga asos buladi.

Fikrimizcha, fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligi-bu, ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini takror ishlab chiqarish jarayonida biologik, texnik-texnologik va iqtisodiy omillardan foydalanish, mahsulotni yigishtirish, tashish, saqlash, sotish va iste'mol qilish bosqichlarida ustunlikni egallashlari uchun buladigan raqobatda mahsulotning narxi, sifati va ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali xaridorlar talabi, istak-xoxishlarini qondira olish, ko'rsatkichlari bo'yicha afzalliklarini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Shu nuqtai nazardan fermer xo'jaligi raqobatbardoshligini baxolash uchun taklif qilinayotgan tovarlarning narxi, rentabellik darajasi, sifat bo'yicha talabga mosligi va ishlab chiqarish hajmi kabi ko'rsatkichlaridan foydalanish kerak buladi.

Tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligi mahsulot ishlab chiqaruvchi sub'ektlar, tarmoqlar, mamlakat darajasida urganilib, fermer xo'jaliklarida mahsulot raqobatbardoshligini belgilab beruvchi quyidagi omillar aniklandi:

a) mahsulot sifatiga:

1. Tashkiliy va ishlab chiqarish tizimining okilona tarkibi.
2. Tizimning amalga oshishini asoslash.
3. Xodimlar tizimining raqobatbardoshligi.
4. Axborot texnologiyalari rivojlanganligi.
5. Boshqaruv tizimining ilmiy darajasi.
6. Yangi mahsulotlar yaratish va ular tarkibini yaxshilashdagi yangiliklar.
7. Texnologik jarayonlar va uskunalarning yangilanishi.

b) mahsulot narxiga:

8. Jamoat tashkilotlari, iste'molchilar jamiyati, axborot tarkatuvchi tashkilotlar bilan aloqalar rivojlanganligi.
9. Mahsulotning bo'lgan yangi iste'molchilarini topish.
10. Turdosh mahsulotlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish.
10. Butlovchi qismlar, materiallar, xom-ashyolar etkazib beruvchilar o'rtasida raqobatni kuchaytirish.
11. Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona raqobatbardoshligi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida fermer xo'jaliklarida raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish va sog'lom raqobatni rivojlantirish aksariyat holatlarda quyidagi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni takozo etadi:

- tarmoqlar tuzilishidagi nomuvofiqliklar va mahsulot ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarning etishmasligi;
- soha va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining buzilishi;

- mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati borasida suiiste'mollik holatlariga yul kiiilishi;
- narx belgilashda monopol mavkening sakdanib kolishi, jumladan, iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin fark-lanishi;
- faoliyat turi va daromadlarni yashirish holatlarining mavjudligi;
- milliy valutani xorijiy valutalarga erkin almashtirish imkoniyati cheklanganligi;
- xo`jalik sub'ektlarining bozor iqtisodiyoti konunlarini chuqur tushunib etmasliklari.

Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida Qashqadaryo viloyatidagi fermer xo`jaliklari faoliyati tadqiq etildi. Tahlillar ko`rsatishicha, 2007-2011 yillarda fermer xo`jaliklarida barqaror sur'atlarda rivojlandi.

2009-2013 yillarda viloyat fermer xo`jaliklari soni 73,6 foizga qisqargani holda, ularning yalpi qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2009 yilda 39,3 foizni tashkil etgan.

2013 yilda 41,9 foizga teng bo`ldi. Ushbu ko`rsatkich usimlikchilikda 2009 yilda 98,3 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2013 yilga kelib 97,4 foizga teng bo`ldi, chorvachilikda ushbu ko`rsatkich mutanosib ravishda 1,7 foiz va 2,6 foizni tashkil etdi. Shuningdek, respublika miqyosidagi ko`rsatkichlar bilan takkoslaganda ham, viloyat fermer xo`jaliklarining barqaror rivojlanayotganini kuzatish mumkin (2.3.3-jadval).

Fikrimizcha, fermer xo`jaliklari raqobatbardoshligini oshirish va ularni rivojlantirish uchun tashkiliy-tarkibiy takomillashtirish nuqtai nazaridan, tarmoq va ekinlarni ilmiy asoslangan tarzda joylashtirishda aynan xar bir hududning tabiiy-iqlim, er va demografik shart-sharoitlari inobatga olinishi lozim.

2.3.3-jadval Respublika va viloyatlarda fermer xo'jaliklari rivojlanishining kiyosiy ko'rsatkichlari (foiz xisobida) ⁴⁵									
№	Viloyatlar	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi		Ekin maydonidagi ulushi		Paxta etishtirishdagi ulushi		G'alla etishtirishdagi ulushi	
		2009	2013	2009	2013	2009	2013	2009	2013
1	Respublika bo'yicha	31,4	35,0	74,5	84,8	86,4	99,4	71,2	81,5
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	40,2	40,2	75,2	86,4	95,2	99,8	64,3	69,8
3	Andijon	22,0	32,7	57,0	85,5	64,3	99,5	55,0	84,9
4	Buxoro	28,7	30,2	74,4	82,0	89,6	99,5	53,9	60,3
5	Jizzax	38,1	37,1	90,1	92,0	98,1	100	94,1	93,6
6	Qashqadaryo	39,3	41,9	78,5	85,1	95,9	99,9	83,2	86,3
7	Navoiy	71,2	76,7	71,2	76,7	71,2	76,7	71,2	76,7
8	Namangan	72,5	81,6	72,5	81,6	72,5	81,6	72,5	81,6
9	Samarqand	70,5	79,7	70,5	79,7	70,5	79,7	70,5	79,7
10	Surxondaryo	67,2	79,8	67,2	79,8	67,2	79,8	67,2	79,8
11	Sirdaryo	90,4	88,8	90,4	88,8	90,4	88,8	90,4	88,8
12	Toshkent	69,8	92,5	69,8	92,5	69,8	92,5	69,8	92,5
13	Farg'ona	71,2	80,6	71,2	80,6	71,2	80,6	71,2	80,6
14	Xorazm	64,3	68,1	64,3	68,1	64,3	68,1	64,3	68,1

Fermer xo'jaliklari faoliyatida raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhiti tushunchalariga tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro ta'sir etish jihatlari xisobga olgan holda yondashish zarur. Shu nuqtai nazardan, fikrimizcha, ular faoliyati bilan bog'liq raqobat va raqobat muhiti tushunchalariga tavsif berishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- fermer xo'jaligi o'z joylashuviga ko'ra, qulay joylarni tanlash imkoniyatiga ega emasligi;

- muayyan bir fermer xo'jaligining joylashishi va shart-sharoitiga nisbatan boshqa fermer xo'jaliklarining qulay mavkega egaligi;

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq xo'jalik sub'ektlarining boshqa mintakalardagiga nisbatan qulay sharoit, sifatli va kam harajat evaziga mahsulot etishtirish, saqlash va tashish harajatlari iqtisod qilish jihatdan lokal monopoliyaning mavjudligi.

Shu bois, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi xar bir bozor sub'ekti o'zining raqobatbardoshligini baxolashi zarur. Ushbu holat bozor sharoitida quyidagi omillar bilan izoxlanadi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, jumladan, fermer xo'jaliklari boshqa mulk shaklidagi korxonalar kabi mahsulotlarni o'zlariga qulay bo'lgan sharoitlarda sotish uchun arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish asosida raqobat muhitida faoliyat ko'rsatishlari kerak;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi o'z mulkidan foydalanishda doimiy ravishda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan foydalirok natijalarga ega bo'lishi kerak. Aks holda, mulkdan ushbu tarzda foydalanish maqsadga muvofiqmi, degan savol yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar yuqori daromad olishlari uchun mulkdan samarali foydalanish va boshqa mulk shaklidagi korxonalar bilan raqobatdosh bo'lishi kerak;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'z ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajarishlari uchun yaqin kelajakda ishlab chiqarishni kengaytirishi, buning uchun esa, barqaror moliyaviy va moddiy-tsxnik bazaga hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur;

- aksariyat fermer xo'jaliklari joylashgan mintakaning noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari ishlab chiqarish ixtisosligini o'zgartirish uchun imkoniyat bermaydi. Bunday xollarda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning ko'plab korxonalar bilan, jumladan ularga xizmat kursa-tuvchi infraguzilmalar sub'ektlari bilan buladigan o'zaro munosabatlarida tegishli imtiyozlar berish maqsadga muvofiq.

Yukridagi holatlarning bevosita mahsulotlar va xizmatlar bozor-larining o'zaro bog'liqlikda bo'lishini e'tiborga olib, mintakaviy bozorda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini baxolash uchun

quyidagi biz taklif kiyaayotgan tashkiliy chora-tadbirlar modelidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Taklif qilinayotgan yondashuv raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniklash qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan ozik-ovkat mahsulotlarining raqobatbardoshligini baxolashda hududning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish, bozor kon'yunkturasini o'rganish, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini takkoslash uchun bozorni tanlash va rakrbatchilar imkoniyatlarini e'tiborga olish kabi keng kamrovli jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, ushbu jarayonda quyidagilarga aloxida e'tibor qaratish lozim:

- faoliyatni tashkil etishda tabiiy shart-sharoitlarning turlichaligi;
- moliyaviy mablag'larni jalb etish va foydalanishdagi ta'minot darajasi;
- moddiy-texnika bazasining shakllanishi va barqarorligidagi farqlar;
- mutaxassislar bilan ta'minlanganlik, ularning malaka va tajriba darajasi;
- fermer xo'jaliklarining harajatlarni tejash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish salohiyati;
- fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuv darajasi;
- fermer xo'jaliklari faoliyat yuritayotgan hududdagi infratuzilma majmuining rivojlanganlik darajasi;
- davlatning fermer xo'jaliklarini tartibga solish mexanizmi va dastaklaridan foydalanish darajasi.

O'zbekiston sharoitida jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining qishloq xo'jaligi tarmog'iga ko'rsatgan salbiy okibatlarini kamaytirish va yumshatishda fermer xo'jaliklarining inqirozga qarshi boshqarish strategiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1 -bosqich-inqirozga qarshi tezkor boshqarish. Ushbu bosqichda fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqaror rivojlanishini ta'minlash va tulov kobiliyatini pasaytirishda ta'sir ko'rsatayotgan sabablarni bartaraf etish hamda oldini olishda inqirozga taallukli yo'nalishlarga jiddiy e'tibor qaratish lozim;

2-bosqich-inqirozga qarshi joriy boshqarish. Ushbu bosqichda fermer xo'jaliklarining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha iqtisodiy tadbirlarni joriy etish eng samarali yo'nalishlardan biri xisoblanadi;

3-bosqich-inqirozga qarshi o'rta muddatli boshqarish. Bunda esa 3-5 yil mobaynida moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarni takomshshashtirish, moddiy va mexnat sarf-harajatlarini innovatsiya ishlanmalari asosida qisqartirish x,amda zamonaviy ilgor agrotexnologiyalarni joriy etishga ustuvorlik berish lozim.

O'zbekiston sharoitida jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy okibatlarini kamaytirishda fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlarga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq, deb xisoblaymiz:

- bozor kon'yunkturasi va baxo siyosati talablaridan kelib chikkai holda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish va tejashning anik tadbirlarini joriy etish;

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari faoliyatini diversifikatsiyalash asosida yanada rivojlantirish va kengay-tirish;

- bugungi kunda jaxon miqyosida kuzatilayotgan ozik-ovkat inqirozi salbiy okibatlarining oldini olish maqsadida qishloq xo'jalik ekinlarini maqbul darajada joylashtirish, er va suv resurelaridan samarali foydalanish, jim maydonlarini optimallashtiriga, fan va texnika yutuklarini tezkor kullash negizida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Dissertatsiya ishida fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini ta'minlash, ular faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirigada marketing strategiyasidan keng kulamda foydalanish ustuvor vazifalardan biri sifatida tadqiq etilgan. Fikrimizcha, fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini rivojlantirishning marketing strategiyasi uning asosiy elementlari, ya'ni xarakatlar dasturi (kontseptsiya)=>maqsad va vazifalar (dasturning asosiy yo'nalishlari bo'yicha)=>rivojlanishning indikativ rejalari (muammolar va nomutanosibliklarni atroflicha tahlil etish => fermerlikni

rivojlantirish bo'yicha bozor strategiyasi yo'nalishlari doirasida amalga oshirilishi zarur¹⁰.

Raqobatbardoshlikni oshirish uchun, fikrimizcha, fermer xo'jaliklari negizida qishloq xo'jalik xom ashyosi ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni marketing siyosatiga mos ravishda o'zgartirish, erdan foydalanish va texnikaviy jixozlanish darajasini muntazam yaxshilash, mahsulotni jaxon bozori talablariga muvofiq standartlashtirishning mukammal uslublariga o'tish muhim vazifalardan xisoblanadi. Ushbu jarayonda muayyan bir fermer xo'jaligining raqobatbardoshligini shu xokalda etishtirilayotgan mahsulot turi bo'yicha ixtisoslashgan boshqa yuqori xosildorlik bilan faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari ko'rsatkichlari bilan takkoslash raqobatbardoshlik darajasini baholash imkoniyatini beradi.

Istiqbolda muayyan turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari stishtiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidg sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va ularni ximoya qilish maqsadida davlatning tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish zarur.

Fikrimizcha, fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini oshirish va ular o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirishda davlat tomonidan asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilmog'i lozim:

- ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishiga tashqi va ichki bozor narxlarining salbiy ta'sirini pasaytirish;
- iqtisodiyotning agrar va industrial tarmoqlari mahsulotlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikni bosqichma-bosqich muvofiqlagatirib borish;
- moliya-kredit, soliq va sug'urtalash tizimlarini iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyillariga mos ravishda takomillashtirib borish;
- fermer xo'jaliklari mahsulotlarini tashish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oluvchi yagona transport siyosatini yuritish;
- bojxona tizimini takomillashtirish;
- barcha yo'nalishdagi infratuzilmalar tarkibiga kiruvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini yaratish va ularning faoliyat turlarini keshaytirish;
- mahsulot etishtirish va sotish tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

Shuningdek, bevosita fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish va daromadlar barqarorligini ta'minlash uchun davlatning qo'llab-quvvatlash tizimida quyidagi muhim vazifalarni hal etish nazarda tutilishi lozim:

- moddiy-texnik ta'minot tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiya-lash darajasini oshirish va sarf-harajatlarni kamaytirish;

- fermer xo'jaliklarini kredit, sug'urta va soliq bo'yicha imtiyozli qo'llab-quvvatlash;

- fermer xo'jaliklarini narx bo'yicha qo'llab-quvvatlash;

- fermer xo'jaliklarini antidemping siyosati orqali qo'llab-quvvatlash;

- chul va tog oldi hududlarida joylashgan fermer xo'jaliklarini turli tashkiliy-tarkibiy va ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar orqali qo'llab-quvvatlash va xk.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati natijasi ularok fermer xo'jaliklari o'z tasarrufidagi er may-donlarida davlat extiyojidan ortiqcha va davlat buyurtmasi bekor qilingan mahsulotlarni ekish va etishtirilgan xosilni erkin sotish xuquqiga ega bo'ldilar. Fikrimizcha, o'rta istiqbolda fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini oshirish birinchidan, mahsulot etishtirish, sotish va baxo belgilash tizimida, ikkinchidan esa, ta'minot va xizmat ko'rsatish tizimida amalga oshirilishi kerak.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, paxta va g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar ajratishda muddat nuqtai nazaridan agrotexnik tadbirlarni o'z vaktida olib borish nazarda tutilmaganligi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- xarid qilish rejasini bosqichma-bosqich kamaytirish asosida mahsulotlarga erkin narx belgilash amaliyotini joriy qilish;

- fermer xo'jaligidagi barcha resurslardan samarali foydalanish, ekinlar xosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish, mahsulotlarni sotish kanallari va hududlarini kengaytirish, kafolatli iste'molchilar topish, narx va boshqa omillar bo'yicha doimiy monitoring olib borish orqali resurs tejamkor chora-tadbirlarni ishga solib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligining muhim ko'rsatkichlari xisoblangan tovar (mahsulot) ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarini tashkiliy-tarkibiy jihatdan takomillashtirish va tashqi munosabatlarni amalga oshirishni ta'minlovchi quyidagi iqtisodiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish zarur:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududiy ixtisoslashgan ulgurji savdo bozorlarini (g'alla, meva-sabzavot, kartoshka, chorva mahsulotlari va boshqalar) tashkil etishni rag'batlantirish va rivojlantirishning iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish hajmi va sifatini bashorat qilish mexanizmini takomillashtirish;

- ishlab chiqaruvchilar tomonidan meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini erkin sotigani ta'minlash maqsadida savdo uylari, supermar-ketlar, ulgurji savdo-tijorat xususiy korxonalarini rivojlantirishni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish, «xarid qilish-sotish» tizimidagi sun'iy tusiklarni bartaraf etishga qaratilgan mavjud me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini qabul qilish;

- bojxona tizimi tranzit masalalarida, ya'ni avtomobil, temir yul, samolyot va boshqa transportlarda mahsulot tashishda imtiyozlar berish, litsenziya va sertifikatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirish va takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari va xosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish, bu borada tashviqot-targ'ibot ishlarini kuchaytirish, sug'urta kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va moliyaviy qo'llab - quvvatlash.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari sonining ko'payayotganligi, ularga berilayotgan turli imtiyozlar va boshqa engilliklarga karamasdan, ular o'rtasidagi raqobat muhitining joriy holati iqtisodiyotni erkinlashtirish talablariga to'liq javob bsrmaydi. Jumladan, ta'minot va xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-ta'minot va agroservis korxonalarida boshqaruvning samarali tizimini shakllantirish;

-ekologik toza raqobatbardosh mahsulotlar etishtirishda bioservis tarmog`ida urugchilik, nav va selektsiyani rivojlantirish uchun raqobatchi xususiy urugchilik korxonalarini tashkil etish;

-mineral upgglarning ulgurji va chakana savdosi bilan shugullanuvchi xususiy shoxobchalarni tashkil etish;

-mineral ugit, EMM va boshqa resurslarni etkazib beruvchi transport korxonalariga turli imtiyozlar berish;

-xo`jaliklarni moddiy-texnika resurslari batan o`z vaktida ta'min-lagan, sifatli va arzon xizmat ko`rsatgan korxonalarga xar yili tanlov asosida resurslarni erkin taqsimlash xuquqini berish;

-moddiy-texnika resurslari (mineral ugit, kimyoviy vositalar, extiyot qismlar va sh.k.)ning erkin bozorini shakllantirish;

-MMTP va MTPlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun davlat tomonidan ishlab chikilgan anik hududiy dasturlar orqali yordamlashish;

- hududlarda ko`rsatilayotgan xizmatlar (narxi, sifati, ishonchligi, shartnoma muddatlari va x.k.) monitoringini yuritish;

- axborot, biznes-reja tuzish, buxgalteriya, audit, xuquqiy xizmatlar ko`rsatishni yaxshilash;

-mahsulotni qayta ishlash, kadoklash, saralash, sakdash va sotish tizimini hududiy miqyosda rivojlantirish;

-ta'minot va xizmat ko`rsatish tizimiga kredit ajratishning tartib-koidalarini soddalashtirish va takomillashtirish, berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini ko`rib chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi fundamental kategoriya sifatida namoyon bo'lib, mintaqaviy takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari va omillarining majmuini ham, umuman bir butun hududiy birlik manfaatlarini hisobga olgan holda tabiiy-resurs potentsialidan foydalanish samaradorligini ham o'z ichiga oladi.

2. Mintaqa raqobatbardoshligi – uning raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmoqlarida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish asosida aholi turmush farovonligini oshirishdan iborat.

Mintaqaviy klaster – mintaqada raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi, o'zaro aloqador va bir biriga yaqin joylashgan korxonalar (tashkilotlar) guruhidir.

Mintaqaviy klasterlarni tashkil etishda viloyatning mavjud raqobat afzalliklarini investorlar o'rtasida va xalqaro doirada targ'ib etish muhim ahamiyatga ega.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun davlat budjeti, halqaro moliya institutlari, mahalliy budjet, tijorat banklari, mikromoliyalash tashkilotlari, xususiy investorlar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'z mablag'laridan samarali foydalanish muhim xisoblanadi.

4. Bu borada taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajribalaridan foydalanib, outsorsing korxonalarini tashkil etish va ular faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Aynan shunday innovatsion xarakterga ega bo'lgan korxonalarni shakllantirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish mumkin.

5. Iqtisodiyotni liberallashtirish talablariga mos ravishda fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini oshirishdakilichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasida quyidagi yo'nalishlarga e'tiborni qaratish lozim:

- mahsulot assortimenta strategiyasi bo'yicha: iste'mol tovarlarini keng kulamda taklif etish, yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish va sifatini oshirish;

- ishlab chiqarish strategiyasi bo'yicha: ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mahsulotlarga qattiq (standart) talab o'rnatish, foydani taqsimlashda va qayta taqsimlashda texnologii yangiliklar ixtiro etishta yo'naltirish, dizayn sohasida ish olib boradigan mutaxassislarni ishga jalb etish. Fermer xo'jaliklarida zamonaviy agroinnovatsiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish natijasida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligi oshadi hamda ishlab chiqarish rentabelligi kamida 10 foizga o'sishi xisobiga ularning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi;

- mahsulotlarni sotish strategiyasi bo'yicha: fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va mahsulotlar sotish borasidagi imijini mustahkamlash, dunyo bozorida mustahkam o'rin egallash, xaridorlar sonini ko'paytirish uchun qulay narxlarni kullash, shu mahsulot turi bo'yicha xalqaro yarmarka va kurgazmalarda katnashish imkoniyatlarini kengaytirish hamda faol sub'ektlarni moddiy rag'batlantirish;

- personal tanlash va tayyorlash strategiyasi bo'yicha: kadrlar tayyorlash tizimi va moddiy rag'batlantirish mexanizmini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish.

6. Xorazm viloyati iqtisodiyotig raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tikuvchilik mahsulotlari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklarini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha agrofimlar va kooperatsiyalarni rivojlantirish hamda meva, sabzavot va polizchilik sharbatlari, turli konserva mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va ziravorlar, quruq mevalar ishlab chiqarishini tashkil etish va ularning eksportini tashkil etish; Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Ma'kamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2014 yil 18 yanvar.
2. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.
3. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi, 2012 yil 10 oktabr.
4. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni roli va ahamiyati mavzusidagi xalqaro konferentsiyasida Respublika Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2012 yil 15 sentabr.
5. "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2012y.
6. "Tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2012 y.
7. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat Dasturi, 2011 y.
8. Respublika Prezidenti PF-4458 sonli "Statistik, soliq, moliyaviy xisobotlari O'zbekiston, 1995, № 9, s. 193.
9. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rni. Xalqaro anjuman materiallari. Toshkent, 2012.
10. I.A Karimov. BMT sammiti "Mingyillik rivojlanish maqsadlariga" bag'ishlangan yalpi majlis. 20.09.2010.
11. Каримов И.А. Наша главная задача – дальнейшее развитие страны и повышение благосостояния народа. - Ташкент.: Узбекистан, 2010. 72 с.
12. Каримов И.А. Концепция дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране. Доклад Президента

- Республики Узбекистан на совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Народное слово. 13.11.2010
13. Каримов И.А. Все наши устремления и программы - во имя дальнейшего развития Родины и повышения благосостояния народа. Доклад Президента Республики Узбекистан на заседании Кабинета Министров Республики Узбекистан. Народное слово. 23.11.2011
14. Abraev N. Kichik biznes sub'ektlarini investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish. Iqt.f.nomzodi diss. aftoreferati. Toshkent, 2012.
15. Mamatov F. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini strategik yondashuv asosida takomillashtirish. Iqt.f.nomzodi diss. aftoreferati. Toshkent, 2012.
16. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: Институт макроэкономических и социальных исследований. 1998, с.38.
17. Radjapov K. Institutsional islohatlar sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish (Xorazm viloyati misolida). Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: BMA. 2009, 26 b.
18. Ubaydullaev K. Orolbo'yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: O'zbekiston bozor isloxtlari ilmiy tadqiqot instituti. 2005.-46 b.
19. Elov D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mintaqaviy agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyasi samaradorligi (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: O'zMU. 2000, 23 b.
20. Abdimuminov O. O'zbekiston va BMT: Orol muammosi yuzasidan hamkorlik. // Jamiyat va boshqaruv. – Tashkent, 2010. -№4.- b. 37-40.
21. Abirkulov K. Suv va hayot muammolari. T.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1997, №3, 15-16 b.

22. Abdullaev M. Ming yillik rivojlanish maqsadlari va atrof muhit. T.: // Jamiyat va boshqaruv. – Tashkent, 2010. -№4.- b. 40-42.
23. Almatova D. Mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari. T.: O`qituvchi, 2005, 141 b.
24. Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. Теория и практика. – Т.: ИЭ АН РУз, 2005. – 54 с.
25. Бутиков И. Институциональные основы формирования многоукладной экономики. Т.: Консаудитинформ. 2002, с.272.
26. Кадыров А.М., Нуриддинова А.Г. Основные направления совершенствования инновационной деятельности в Республике Узбекистан. – Т.: ТГТУ, 2005. – с.79.
27. Половинкин П. Повышение конкурентоспособности АПК. М.: Экономист. №10, 2005, с.74.
28. Портер М. Международная конкуренция. – Москва: Международные отношения, 2005. – 859 с.
29. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. М.: Алпина Бизнес Букс, 2005, с.375.
30. Пронкина Т. Инструменты и вектор промышленной политики // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2009. - № 1.- С. 13-18.
31. Пугач И. Экономические различие территорий и поиск направлений по децентрализации. Т.: Экономический вестник Узбекистана. №1, 2005, с.10.
32. www.mineconomy.uz
33. www.senat.uz
34. www.parliament.gov.uz
35. www.stat.uz
36. www.gov.uz
37. www.press-service.uz
38. www.cer.uz
39. www.worldbank.org
40. www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html

- 41. www.dinform.ru/newanalit
- 42. nauka.dp.ua
- 43. www.citystrategy.leontief.ru.
- 44. www.jn.vscs.ac.ru.